

**‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**



**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI  
TURIZM VA IQTISODIYOT FAKULTETI**

**ZARIPOV XURSHID ZAKIR o'g'li**

**5111000-KASB TA'LIMI**

**“BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT”**

**ta'lim yo`nalishi bo`yicha bakalavr darajasini olish uchun**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**IQTISODIY ISLOHOTLARNI SHAKLLANTIRISHDA SOLIQ  
SIYOSATINING USTUVOR YO'NALISHLARI.**

**Ilmiy rahbar:**

**Bobojonov U.**

**Urganch - 2019 yil**

# **Iqtisodiy islohotlarni shakllantirishda soliq siyosatining ustuvor yo'nalishlari.**

## **KIRISH.**

**I boʻb. Bozor munosabatlari sharoitida soliq siyosatini tashkil etishning nazariy uslubiy asoslari.**

**1.1 Soliq siyosati va uning iqtisodiyotda tutgan o'ri.**

**1.2 Soliq siyosatini tashkil etish va boshqarishning huquqiy asoslari va tamoyillari.**

**1.3 Xorijiy rivojlangan mamlakatlarda soliq siyosatini takomillashtirish tajribalari.**

**II boʻb. Iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishda O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari va uni takomillashtirish yo'llari.**

**2.1 O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatining davlat budjetini barqarorlashtirishdagi roli.**

**2.2 Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatini samarali boshqarishning asosiy yo'llari.**

**2.3 O'zbekiston Respublikasida soliq siyosatini tashkil etishning asosiy yo'nalishlari va istiqbollari.**

**Xulosa va takliflar**

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

## KIRISH

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi.** Bugungi kunda mamlakatimizni modernizatsiya qilish va fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida huquqiy demokratik davlatni qurish belgilab olingan ekan, fuqarolik jamiyati bu bir qancha vakolatli vazifalarni davlatdan mahalliy budjetga, jamoat tuzimlariga va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga bosichma-bosqich topshirishni ko'zda tutadi. Bu esa o'z an'vatida mahalliy byudjetlar moliyaviy resurslarini asosiy manbai bo'lgan mahalliy soliqlar va yig'implar ahamiyatini oshib borishini bildiradi.

Soliq siyosatiga qat'iy amal qilish, davlatning ijtimoiy majburiyatlarini bajarish, ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalar hajmi, yirik investitsiya loyihalari va mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlashni moliyalashtirish – ushbu eng muhim vazifalarni amalga oshirish, avvalo, faoliyati samaradorligi bilan belgilanadi.<sup>1</sup>

Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolish, jumladan, Davlat byudjeti barcha darajada mutanosib, milliy valyuta va ichki bozordagi narx darajasi barqaror bo'lishini ta'minlash – eng muhim ustuvor vazifamizdir.

Bu borada faqat byudjet profitsiti haqida so'z borishi mumkin va zarur. Bu muhokama qilishni emas, balki so'zsiz bajarishni talab etadigan strategik vazifadir.

Davlatimiz xazinasini moliyaviy resurslar bilan to'ldiruvchi asosiy manba soliq bo'lgani sababli, u jamiyatimiz oldida turgan muhim ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, ma'rifiy va boshqa ko'pgina vazifalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan miqdordagi pul mablag'i bilan ta'minlanishi lozim. **Soliqlar** davlat budjetini to'ldiruvchi asosiy elementlardan biri bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun soliqlarga davlat budjetining daromad qismini shakllantiruvchi, eng muhim bo'lgan umumdavlat vazifalarini hal etish uchun zarur miqdordagi mablag'ni jamlantiruvchi dastak sifatida qarash lozimdir.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" mavzusidagi ma'ruzasi. T.: o'zbekiston 2016.

Davlatning ijtimoiy - iqtisodiy vazifalarini o'z vaqtida to'liq va ijobiy hal etish ma'lum moliyaviy asosni talab etadiki, aynan ushbu asosning markaziy bo'g'inini davlat budjeti daromadlari tashkil etadi. Davlat moliyasini sog'lomlashtirish davlat budjeti daromadlarining barqarorligini, ularni shakllantirish manbalari mukammal nisbatini va butligini ta'minlash O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan institutsional isloxlarni hozirgi bosqichida yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bir vaqtning o'zida mamlakatimiz budjetining so'ngi yillaridagi ijobiy qoldig'i, ya'ni budjetning profitsit bilan yakunlanishiga qaramasdan, budjetni belgilangan miqdordagi daromadlar bilan ta'minlash masalasining juda katta qiyinchiliklar bilan hal etilayotganligini, davlatning ixtiyorida bo'lishi lozim bo'lgan moliyaviy resurslarning yetarli darajada emasligi uning o'z oldiga qo'ygan vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlarini shakllantirish tizimida qator muammolarning mavjudligini ham ta'kidlab o'tish joiz. Ulardan asosiylari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- Davlat budjeti solikli daromadlarining tarkibida egri soliqlardan tushumlarning nisbatan katta salmoqqa ega ekanligi;
- Davlat budjeti daromadlarini aniq tasniflash mezonlari asosida shakllantirish amaliyotining mavjud emasligi va hokazolar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, davlat budjeti solikli daromadlarini shakllantirish muommolari hozirgi davrning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi** bo'lib, davlat solikli daromadlarini shakllantirish yuzasidan amaliy tavsiya va takliflar berish xisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishining vazifalari.** Yuqoridagi maqsaddan kelib chiqqan xolda bitiruv malakaviy ishining oldigi qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi asosiy vazifalar belgilab olinadi:

- davlat budjeti solikli daromadlarini iqtisodiy mohiyati va ahamiyati;
- davlat budjeti solikli daromadlarini shakllantirishning tashkiliy- iqtisodiy va huquqiy asoslari;
- davlat budjeti solikli daromadlarini shakllantirishda holatini tahlili qilish;

- davlat budjeti solikli daromadlarini budjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida taqsimlanishi;
- davlat budjeti daromadlarini oshirishdagi muammolar va ularni hal qilish imkoniyatlari;
- davlat budjeti solikli daromadlarini barqarorlashtirish yuzasidan amaliy tavsiya va takliflar tizimini ishlab chiqishdan iborat.

**Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti.** O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, Davlat Soliq Qo'mitasi va qator boshqa vazirliklarning davlat budjeti daromadlari tarkibi va uni takomillashtirish yo'nalishlari borasidagi faoliyati bitiruv malakaviy ishining ob'ekti xisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishining predmeti.** Davlat soliq siyosatini amalga oshirishda budjeti solikli daromadlarini shakllantirish va u bilan bog'liq munosabatlar bitiruv malakaviy ishining predmeti bo'lib xisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishning nazariy-amaliy ahamiyati.** Bitiruv malakaviy ishining nazariy-amaliy ahamiyati shundan iboratki, o'rganilgan va tahlil qilingan materiallar, bayon qilingan fikr-mulohazalar, xulosa va takliflardan iqtisodiyotni diversifikatsiyalash sharoitida soliq siyosatini takomillashtirish masalalarida nazariy-amaliy manba sifatida qo'llanilishi mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishining tarkibi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikkita bob, xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

## **I 606. Bozor munosabatlari sharoitida soliq siyosatini tashkil etishning nazariy uslubiy asoslari.**

### **1.1. Soliq siyosati va uning iqtisodiyotda tutgan o'ri.**

Soliqlar bevosita davlatning paydo bo'lishi bilan bog'liqdir, ya'ni davlat o'zining vazifalarini bajarish uchun moliyaviy manba sifatida soliqlardan foydalanadi. Jamiyatda iqtisodiy samarasiz bo'lgan sohalar ham mavjudki, bular soliqlarni ob'yektiv amal qilinishini talab etadi. Soliqlarning ob'yektiv zarurligini bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ikki holat bilan ifodalash mumkin:

- birinchidan, davlatning qator vazifalarini mablag' bilan ta'minlash zarurligi;
- ikkinchidan, bozoriqtisodiyoti qonun-qoidalarini bilan;

Davlatning bajaradigan funksiyalari va vazifalari ko'p bo'lib, bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davlatning yangi vazifalari paydo bo'ladi. Bularga kam ta'minlanganlarga ijtimoiy yordam ko'rsatish, bozor iqtisodiyoti infratuzilmasini (sanoatda, qishloq xo'jaligida, moliya tizimida) tashkil qilish kiradi. Shu bilan birga, davlat jamiyat a'zolari osoyishtaligini saqlash maqsadida o'zining mudofaa qobiliyatini saqlab va mustahkamlab turishga, texnika va o'qidorilarga ham mablag'lar sarflaydi, qolaversa, davlat fuqarolar xavfsizligini saqlash, mamlakatda tartib intizom o'rnatish, uni boshqarish funksiyalarini bajarish uchun ham ko'plab mablag' yo'naltirishga majbur. Bunday xarajatlarni amalga oshirishning majburiyligi ular uchun manba bo'lgan soliqlarni ham ob'yektiv zarur qilib qo'yadi.

Hozirga qadar davlatning funksiyalarini bajarish uchun lozim bo'lgan moliyaviy mablag'larni shakllantirishning soliqlardan boshqa usuli jahon amaliyotida qo'llanilgan emas. Demak, hukmron kuch sifatida davlat mavjud ekan, moliyalashtirish usuli sifatida soliqlar ham amal qiladi. Ma'lumki, jamiyat iqtisodiy hayoti juda murakkab iqtisodiy hodisalardan iborat. Ana shu murakkablik bevosita soliqlarga ham tegishliki, bu holat soliqlarning iqtisodiy mohiyatini teran anglashni taqozo etadi.

Bu munosabatlar soliq to'lovchilar (huquqiy va jismoniy shaxslar) bilan ularni

o'z mulkiga aylantiruvchi davlat o'rtasida bo'ladi. Soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa to'lovlar hisobiga davlat moliyaviy resurslari tashkil topadi. Davlat faoliyatining barcha yo'nalishlarini mablag' bilan ta'minlashning asosiy manbalaridan biri va davlat ustuvorligini amalga oshirishning iqtisodiy vositasi soliqlardir. Soliq tizimini tartibga solish va mukammallashtirish samarali davlat iqtisodiy siyosatini olib borishga, xususan, moliyaviy tizimni rivojlantirishga yordam beradi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan soliqlar orqali tartibga solish, davlat byudjetini shakllantirish, soliq solish vositasida jamiyatdagi u yoki bu jarayonlarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi usuli hisoblanadi.

Soliq tushunchasi – iqtisodiy munosabatlarda asosiy o'rinni egallaydi. Uning xarakterli tomoni shundaki – u tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan yuridik va jismoniy shaxslardan ularga mulkchilik, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruv huquqida tegishli bo'lgan pul mablag'larini davlat va munisipal tuzilmalarni moliyaviy ta'minlash maqsadida begonalashtirish shaklida undiriladigan majburiy, yakka tartibdagi qaytarib berilmaydigan to'lovlarni aks ettiradi, ya'ni soliq – davlat tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'yektlar va fuqarolardan majburiy qonuniy tartibda belgilangan stavkalar bo'yicha, soliq to'lovchining bundan biron bir muayyan manfaat ko'rishi bilan bevosita bog'lanmagan tarzda undiriladigan pul yig'imi.

Hozirgi vaqtda soliqlar vositasida davlat daromadlarining asosiy qismi shakllantiriladi. Bozor munosabatlarining shakllanishi davrida soliqlar korxonalarining iqtisodiy faoliyatini tartibga solishning bilvosita quroli hisoblanadi. Soliq to'lash xo'jalik yurituvchi sub'yektlar va fuqarolar bilan davlat o'rtasida yangidan yaratilgan qiymatni taqsimlashning asosiy vositasi hisoblanadi. Biror bir jamiyatni soliq tizimisiz tasavvur qilish mumkin emas. Chunki soliqlar byudjet daromadlari (pul fondi)ni tashkil etishning asosiy vositasi bo'libgina qolmay:

- ❖ mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishga;
- ❖ ishlab chiqarishni rag'batlantirishda investisiyalarni ko'paytirishga;
- ❖ raqobatbardosh mahsulot hissasini ko'paytirishga;
- ❖ kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga;
- ❖ xususiy korxonalar ochish bilan bog'liq bo'lgan bozor infratuzilmasini barpo

qilishga;

- ❖ umumdavlat ehtiyojlarini qondirishga va boshqalarga xizmat qiladi.

Jamiyat iqtisodiy taraqqiyoti bir tomondan uning ichki mexanizmiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan boshqaruvning xarakteriga, ijtimoiy-siyosiy holatga, muvozanatga bog'liq bo'ladi. Mazkur jarayonda ijtimoiy siyosat alohida rol o'ynaydi. Ijtimoiy siyosat o'z navbatida ichki va tashqi madaniyma'rifiy, siyosiy, iqtisodiy siyosat kabilarga bo'linadi. Iqtisodiy siyosat ham o'z navbatida moliya, pul-kredit, byudjet, soliq siyosati kabi turlarda amal qilib, ularni yaxlitligi makroiqtisodiy darajada qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari faoliyatlarining asosiy ajralmas qismiga aylanadi. Shu o'rinda soliq siyosatining mazmuniga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, yuqorida qayd etilganidek, soliq siyosati iqtisodiy siyosatning ajralmas bir bo'lagi bo'lib, davlatning muayyan davrda aniq maqsadlarga qaratilgan soliq sohasidagi faoliyatidir. U tarkiban soliqlarni joriy etish, soliqqa oid huquqiy baza yaratish, joriy etilgan soliqlar va soliqsiz to'lovlarni amaliyotda ishlash mexanizmini shakllantirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan davlatning tegishli vakolatli organlari tomonidan kompleks tarzda olib boriladigan chora-tadbirlar yig'indisidir.

Mamlakat soliq tizimi xususiyatlari, yo'nalishlari, qanday soliqlarning joriy etilishi, ular o'rtasidagi nisbatni ta'minlash kabi masalalarni soliq siyosati belgilab beradi. Bugungi kunda respublikamiz soliq siyosatining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi, «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonuni, hukumatning boshqa soliqqa oid qonun, qarorlari, Prezident Farmonlari va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan izohlanadi.

Bugungi kunda respublikamiz soliq siyosatining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi, «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonuni, hukumatning boshqa soliqqa oid qonun, qarorlari, Prezident Farmonlari va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan izohlanadi. Hozirgi paytda respublikamiz soliq siyosatining asosi Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan va muvaffaqiyatli tarzda amaliyotda o'z aksini topayotgan iqtisodiy rivojlanishning besh tamoyilidir. Soliq siyosati ana shu tamoyillar asosida tashkil etilgan bo'lib, soliq sohasidagi samarali choratadbirlar amalga oshirilmoqda.



Soliq konsepsiyasi - soliqlarning yo'nalishlarini aniq ilmiy asoslangan holda amalga oshirish g'oyalarining yaxlitligidir. Mamlakatimizda soliq konsepsiyasi Prezidentimiz I.A. Karimov tomonidan chuqur ilmiy asosda ishlab chiqilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish konsepsiyasiga asoslanadi. Agar soliq konsepsiyasi qanchalik chuqur ilmiy asosga ega bo'lsa, soliq siyosatining barqarorligi shunchalik mustahkam ta'minlanadi. O'z navbatida soliq konsepsiyasi esa soliqlar sohasidagi chuqur ilmiy tadqiqot ishlari hamda soliq amaliyotida orttirilgan boy tajribalarning o'zaro uyg'unligiga asoslangan g'oyalar samaradorligiga bog'liq bo'ladi. Soliq siyosati barqarorligini ta'minlashda uning strategiyasi va taktikasi ishlab chiqilishi lozim. Amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadbirlar xususiyati va muddatini e'tiborga olib soliq siyosati:

- soliq siyosati strategiyasi
- soliq siyosati taktikasiga bo'linadi. (1.1.1-chizmaga qarang)



### 1.1.1-chizma. Soliq siyosati metodi<sup>2</sup>

Soliq siyosati strategiyasida muayyan uzoqroq muddatga mo'ljallangan soliqqa oid iqtisodiy munosabatlarni asosiy yo'nalishlari va chora-tadbirlari ifodalanadi. Bu esa o'z navbatida ilmiy asoslangan soliq konsepsiyasi bilan bevosita bog'liqdir. Masalan, respublikamizda jamiyat taraqqiyotining asosiy strategiyasi qilib erkin, ochiq bozor iqtisodiyotiga, erkin fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy, demokratik jamiyat qurish belgilangan. Soliq borasidagi ustuvor strategik vazifa esa davlat byudjeti va xo'jalik yurituvchi sub'yektlarni soliqqa oid iqtisodiy munosabatlarida

<sup>2</sup> [www.soliq.uz](http://www.soliq.uz) sayti ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

muayyan uyg'unlikni ta'minlovchi soliq tizimini shakllantirish va shunga mos ravishda takomillashtirib borishdan iboratdir yoki boshqacha qilib aytganda, soliq siyosati strategiyasi - soliq siyosatining uzoq muddatli yo'nalishi bo'lib, ijtimoiy va iqtisodiy strategiya belgilab bergan ulkan ko'lamli vazifalarni kelajakda bajarilishini ta'minlash ko'zda tutilgan moliyaviy tadbirlar yig'indisidir. Soliq siyosati taktikasi esa belgilangan soliq siyosati strategiyasi ijrosini ta'minlovchi, tez-tez o'zgarib turuvchi say'i-harakatlarni bildiradi, ya'ni qisqa muddatli va kichik ko'lamli moliyaviy chora-tadbirlarni hal qilishga qaratilgan yo'nalishlar majmuasidir.



**1.1.2-chizma. Soliq siyosatining tarkibiy yo'nalishlari<sup>3</sup>**

Soliq siyosati konsepsiyasi soliq siyosati strategiyasiga nisbatan, soliq siyosati strategiyasi esa soliq siyosati taktikasiga nisbatan barqaror, ya'ni kam o'zgaruvchan bo'lib, ularning barchasi bir-biriga bog'liq holda, bir-birini to'ldirib turadi hamda yaxlit holda soliq siyosatining mohiyatini tashkil qiladi. Soliq siyosati tarkibiy jihatdan quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- mamlakat miqyosida amal qiluvchi soliqlar va soliqsiz to'lovlarni qonuniy joriy

<sup>3</sup> [www.soliq.uz](http://www.soliq.uz) sayti ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

etish;

- amal qilayotgan soliqlarni samarali ishlashini ta`minlovchi mexanizm shakllantirish va takomillashtirish;
- soliqqa oid qonunlar va boshqa me`yoriy hujjatlarni takomillashtirib borish;
- soliq siyosatini amalga oshiruvchi tegishli vakolatli organlarni tashkil etish va ularni ushbu sohadagi vazifalarini belgilash;
- soliqqa tortish tizimini shakllantirishga qaratilgan chuqur ilmiy tadqiqotni amalga oshirish va ularni joriy etishni tashkil etish;

Respublikamizning mustaqillikka erishishi, o`zining mustaqil soliq tizimini shakllantirishni ham taqozo etadi. Shundan kelib chiqib, mustaqillikning dastlabki yillaridan e`tiboran mustaqil soliq tizimini shakllantirishga qaratilgan islohotlar izchillik bilan amalga oshirila boshlandi va ushbu islohotlarning samarasi o`laroq hozirgi paytga kelib respublikamizda bir qadar o`ziga xos bo`lgan soliq tizimi shakllantirildi. O`ziga xos bo`lgan soliq tizimining shakllantirilishini soliq siyosatining samarasi sifatida e`tirof etish mumkin. Respublikamiz davlatchilik shaklidan kelib chiqib respublikamizda respublika byudjeti daromadlarini shakllantirishga qaratilgan umumdavlat soliqlari va mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishga qaratilgan mahalliy soliqlar va yig`imlar amal qiladi. Soliqlarning byudjetlar o`rtasida taqsimlanishi O`zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi bilan mustahkamlangan bo`lib, unga muvofiq respublikamiz soliq tizimida amal qiladigan har bir soliq turi u yoki bu byudjetga tushishi qat`iy belgilab qo`yilgan. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq ayrim umumdavlat soliqlari mahalliy byudjetlarga to`liqligicha biriktirilishi yoki ulardan tushumlar respublika va mahalliy byudjetlar o`rtasida taqsimlanishi mumkin. Ushbu tizim bir necha yillardan buyon mahalliy byudjetlar kamomadini bartaraf etish maqsadida amaliyotda samarali qo`llanilib kelinmoqda.

Shu o`rinda yuridik shaxslarni soliqqa tortishning muhim tartiblariga alohida to`xtalib o`tish zarur. Respublikamiz soliq qonunchiligida hozirgi vaqtda soliqqa tortishning umumbelgilangan tizimi bilan bir qatorda, amaldagi barcha soliqlar o`rniga yagona soliqni to`lashni ko`zda tutuvchi soliqqa tortishning alohida tartiblari ham mavjud. Bu tartib quyidagilar uchun ko`zda tutilgan:

- ✓ savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini;
- ✓ soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimidan foydalanayotgan kichik tadbirkorlik sub'yektlari;
- ✓ qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalarini;
- ✓ lotoreyalar, totalizatorlar va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlarni o'tkazishga ixtisoslashgan yuridik shaxslar;
- ✓ tadbirkorlik faoliyatining alohida turlari bilangina shug'ullanuvchi yuridik shaxslar (bilyardxonalar, qisqa muddatli avtomobil saqlash joylari, bolalar o'yin avtomatlari).

Yuridik shaxslarni soliqqa tortish tartibidagi o'ziga xoslikni mamlakatimiz soliq tizimining muhim xususiyati sifatida e'tirof etish lozim. Chunki respublikamiz soliq qonunchiligiga muvofiq bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotida muhim bo'lgan sohalar alohida tartib bo'yicha soliqqa tortilib kelinmoqda.

Shuningdek, mamlakatimiz soliq tizimining muhim xususiyatlari sifatida soliq to'lovchilarga nisbatan ko'zda tutilgan imtiyozlarni ham qayd etish mumkin. Jumladan, eksport faoliyatini rag'batlantirishga, xorijiy investisiyalar kirib kelishini rag'batlantirishga qaratilgan, aholining ijtimoiy shart-sharoitini hisobga olgan holdagi imtiyozlarni ularning ifodasi sifatida keltirib o'tish mumkin.

Iqtisodiy adabiyotlarda soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari sifatida ikki yo'nalish:

- korxonalar va tashkilotlarga nisbatan soliq siyosati;
- aholining turli ijtimoiy guruhlari uchun soliq siyosati kabi yo'nalishlarga bo'lib o'rganiladi.

Respublikamiz mustaqilligining dastlabki yillarida davlat soliq siyosatining asosiy yo'nalishi bozor munosabatlarini qaror toptirishga qaratilgan qator ilmiy asoslangan soliqlarni joriy etish va shu orqali mavjud soliq tizimini tubdan qayta tashkil etishdan iborat bo'ldi. Soliq siyosatining keyingi yo'nalishi esa joriy etilgan soliqlarning samarali amal qilishini ta'minlash maqsadida soliq munosabatlarini amalga oshiruvchi tegishli muassasalarni tashkil etishga qaratildi. Xususan, dastlab Vazirlar Mahkamasi qoshida Soliq Bosh Boshqarmasi tashkil etilgan bo'lsa, 1994


yilga kelib bu boshqarma Davlat Soliq Qo'mitasiga aylantirildi va uning hududiy bo'linmalari tashkil etildi. Bundan ko'rinadiki, bozor iqtisodiyotiga o'tishning birinchi bosqichida soliq siyosatida asosan tashkiliy jihatlariga e'tibor qaratildi, ya'ni soliqlarni joriy etish va soliq siyosatini bevosita amalga oshiruvchi tegishli muassasalar shakllantirildi. Bu davrdagi soliq siyosatining asosiy xususiyatlaridan biri soliqlarning ko'proq fiskal ahamiyat kasb etishida, ya'ni ko'proq e'tibor davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishga qaratildi.

Jahon soliq siyosati tajribasida soliqqa tortishning quyidagi yo'nalishlariga katta e'tibor beriladi:

- ✚ Har xil mulk shakllariga moslangan korxonalar va tashkilotlarning xo'jalik yuritishiga mumkin qadar iqtisodiy sharoit yaratish, ularni bozor munosabatlariga kirib borishiga har tomonlama ko'maklashish;
- ✚ Ijtimoiy-zaruriy umumdavlat vazifalarini bajarish uchun davlatni kerak bo'lgan moliyaviy manbalar bilan ta'minlash;
- ✚ Bozor iqtisodiyoti sharoitida yangi ijtimoiy-iqtisodiy omillarni tashkil qilishda qatnashish, ishsizlarni ish bilan ta'minlash, iqtisodiy nochorlarga yordam berish;
- ✚ Aholi turmush darajasini zaruriy me'yorda saqlab turish imkonini izlash va ta'minlash, soliqqa tortilmaydigan daromad minimumini vaqti-vaqti bilan oshirib borish. Bunda «iste'mol savatchasi» ma'lumotlarini e'tiborga olish.

Bugungi kunda respublikamiz soliq siyosatining muhim yo'nalishlari sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin: (1.1.3-chizmaga qarang)

- soliq yukini yanada pasaytirish;
- yuridik va jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishni takomillashtirish;
- bilvosita soliqqa tortish samaradorligini ta'minlash;
- resurs soliqlariga ko'proq e'tibor qaratish;
- soliq tizimining soddaligiga erishish;
- davlat xarajatlarini optimallashtirish;



### 1.1.3-chizma. Solliq siyosati yo'nalishlari<sup>4</sup>

Respublikamizda solliq tizimini takomillashtirish jarayonida xo'jalik yurituvchi sub'yektlarga nisbatan solliq yukini izchil kamaytirishga alohida e'tibor qaratish lozimligi ko'p bora ta'kidlanmoqda. Bunda birinchi navbatda ularning daromadlaridan undiriladigan bevosita solliqlarning salmog'ini kamaytirish lozimligi alohida ahamiyatga ega. Buning natijasida korxonalar ixtiyorida qoladigan mablag'lar ulushining ko'payishi evaziga uning aylanma mablag'lari miqdorini ko'paytirib borish va optimal darajasini saqlash, ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish, uning samaradorligini oshirish maqsadida ko'proq investisiya kiritish, xodimlar mehnatini yanada rag'batlantirish imkonini beradi. Jismoniy shaxslar daromadlarini solliqqa tortilishini takomillashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan solliq stavkalarini kamaytirish va aholi daromadlarini solliqqa tortishning uch bosqichli tizimidan ikki bosqichli tizimiga asta-sekin o'tish konsepsiyasini davom ettirish vazifasi turibdi. Bevosita solliqlar bo'yicha solliq yukini izchil kamaytirish solliq siyosatining samaradorligini YaIM ga nisbatan ular tushumining barqaror kamayishi tendensiyasi ham isbotlaydi. Solliq tizimini takomillashtirishda ustuvor ahamiyat bilvosita solliqqa tortishga qaratilgan. Bilvosita solliqlar tovarlarga nisbatan qo'shimcha

<sup>4</sup> [www.solliq.uz](http://www.solliq.uz) sayti ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

bo'lgani holda, pirovard natijada ishlab chiqaruvchining moliyaviy holatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatmaydi hamda ishlab chiqarishni rivojlantirishga to'sqinlik qilmaydi.

Resurs soliqlari yer, suv va boshqa tabiiy boyliklardan samarali foydalanishni ta'minlovchi amaliy vosita bo'lgani holda bozor iqtisodiyotida tabiiy resurslardan foydalanish va kelajak avlodlar uchun saqlash borasida muhim rol o'ynaydi. Soliqlar davlat faoliyatining moliyaviy manbai bo'lganligidan soliq siyosatini ishlab chiqishning tashkilotchisi va rahbaridir. Buning uchun davlat o'z qo'lidagi butun kuchini idoralarini jalb qilib, uni ishlab chiqadi. Bunday tashkilotlarga Moliya Vazirligi, Davlat Soliq Qo'mitasi va boshqa ilmiy-uslubiy tashkilotlar kiradi. Soliq siyosati muvaffaqiyatli ishlab ketishi uchun davlat ilmiy izlanish tashkilotlari tuzib, ularning ish yakunlaridan foydalanadi. Ana shunday tashkilot Vazirlar Maxkamasi qoshidagi ilmiy tekshirish markazi bo'lishi lozim. Davlat soliq siyosatini ishlab chiqayotganda mavjud soliqlarni yoki yangi kiritilishiga mo'ljallanayotgan soliqlarni mohiyatini, ahamiyati, kelib chiqish va rivojlanish tarixini chuqur o'rganish lozim. Ayniqsa, yangi soliqlar joriy qilinishi ilmiy asoslanishi kerak. Bunda yirik amaliyotchi mutaxassislar va olimlar o'rtasida erkin bahslashuv asosida biror qarorga kelish zarur. Bu yerda hech qachon bir sohaning mutaxassislari fikri bilangina chegaralanib qolmaslik kerak, chunki ular o'z manfaatlarini ko'proq ko'zlab, umumdavlat manfaatlarini ko'ra olmasliklari mumkin.

Demak, davlat soliq siyosatini tayyorlovchi va uni to'liq hayotga tadbiiq qilishning tashkilotchilik va boshqaruvchilik rolini bajaradi. Davlatning soliq siyosatini faol yuritish bozor iqtisodiyotiga muvaffaqiyatli o'tish va uning munosabatlarini har tomonlama rivojlantirishning muhim omilidir.

## **1.2. Soliq siyosatini tashkil etish va boshqarishning huquqiy asoslari va tamoyillari.**

Mamlakatimizda bozor munosabatlari rivojlanishi sharoitida soliq huquqining roli tobora oshib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasining soliq tizimida mamlakatni modernizatsiya va isloh etish, iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish vazifalaridan kelib chiquvchi o‘zgarishlar yuz bermoqda. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti tomonidan mamlakatimizda soliq siyosatini yanada takomillashtirish zarurligi ham muhim ustuvor vazifalardan biri sifatida e’tirof etildi. Mamlakatimiz rahbari o‘z ma’ruzalarida soliq to‘lovchilarga soliqqa tortish tizimida qo‘shimcha imtiyozlar va preferensiyalar berish, soliqlarni unifikatsiya qilish, soliq yukini yengillashtirish, soliq qonunchiligini barqarorligini ta’minlash hamda ushbu yo‘nalishda ilg‘or mamlakatlar ijobiy tajribalaridan foydalanish lozimligini ta’kidlab o‘tdilar.<sup>5</sup>

Oxirgi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlar natijasida soliq qonunchilik hujjatlari takomillashib bormoqda. Har yilning oxirida soliq va budjet siyosatining asosiy yo‘nalishlari qabul qilinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarni, shuningdek soliq ma’urchiligini soddalashtirishga, soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni liberallashtirishga, soliq yukini kamaytirishga, soliq tekshirishlarini yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar orqali tadbirkorlik subyektlariga keng shart-sharoitlar yaratilmoqda.<sup>6</sup>

Iqtisodiyotning samarali rivojlanishi ko‘p darajada davlat tomonidan iqtisodiy jarayonlarni boshqarishni to‘g‘ri tashkil etishga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Shu tufayli ham O‘zbekiston Respublikasining bozor munosabatlariga o‘tish xususiyatlaridan biri davlatning iqtisodiy o‘zgarishlarning tashabbuskori va bosh islohotchisi qilib

---

<sup>5</sup> “Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir”. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruzasi. Xalq so‘zi. 2005 yil 29 yanvar - № 20 (3565)

<sup>6</sup> “Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta’minlash, ularni rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015 y., 20-son, 251-modda.



belgilanganidir.

Bozor munosabatlariga o'tishning qiyin davrida aholining manfaatlarini faqat kuchli qayta taqsimlash vositasiga ega bo'lgan davlatgina himoya qilishga qodirdir. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning dastlabki yillaridanoq davlat iqtisodiyotni tartibga solishda soliqlardan ushbu konsepsiyaga asoslangan holda foydalanib kelmoqda.

Soliq siyosatining huquqiy asoslari sifatida mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 31-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida» gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining «Korxonalar, tashkilotlar, birlashmalardan olinadigan soliqlar to'g'risida»gi (1991-yil 15-fevral),«O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmaganlarning daromad solig'i to'g'risida» gi (1991-yil 15-fevral), «Mahalliy soliqlar va yig'imlar to'g'risida» gi (1993 yil 7 may) Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari kabi me'yoriy hujjatlardan iborat bo'lgan bo'lsa, 1997-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi va O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida» gi Qonuni yuqoridagi hujjatlarning ayrimlari o'z kuchini yo'qotishiga olib kelib, ayrimlarining huquqiy bazasining kengayishiga, kuchayishiga xizmat qilib kelmoqda. Mamlakatimizda yangi Soliq kodeksi 2 qism, 18 bo'lim, 60 bob va 396 moddadan iborat.

«O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida» gi Qonunga muvofiq, shu kundan e'tiboran O'zbekiston Respublikasi o'zining mustaqil soliq siyosatini olib boradi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida fuqarolarning burchlariga soliqlarni to'lash majburiyati ham kiritilgan: «Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'imlarni to'lashga majburdirlar». Shuningdek, respublikamiz hududida yagona soliq tizimi amal qilishi va uni belgilash vakolati haqidagi jummlalar keltirilgan: «O'zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qiladi. Soliqlar joriy qilishga faqat O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi haqli».

Bugungi kunda respublikamiz soliq siyosatining huquqiy asoslari O'zbekiston

Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, «Davlat soliq xizmati to'g'risida» gi Qonuni, hukumatning boshqa soliqqa oid qonun, qarorlari, Prezident Farmonlari va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan izohlanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish darajasi, boshqa ko'pgina omillar bilan bir qatorda, unga nisbatan yurgizilayotgan soliq siyosatiga ham bevosita bog'liqdir. Davlat soliq siyosatini ishlab chiqib va uni hayotga tatbiq etib, iqtisodiy rivojlanishga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan davlat soliq siyosati orqali makroiqtisodiy samaradorlikka erishishi mumkin.

Soliq siyosatini amalga oshirishda xizmat qiladigan soliq dastaklari (imtiyozlar, stavkalar, soliqqa tortiladigan bazani shakllanishi va boshqalar) kuchli ta'sir etuvchi va qiyin boshqariladigan soliq qurollaridir. Masalan, soliq to'lovchilarga keng soliq imtiyozlarini berish byudjetning daromadlarini shakllantirish nuqtai nazaridan butunlay teskari oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Boshqa tomondan esa, soliq imtiyozlarining har tomonlama bekor qilinishi tadbirkorlik faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi va korxonalarining ishlab chiqarish hamda noishlab chiqarish sohalariga kapital qo'yilmalarning sezilarli kamayishiga sabab bo'ladi. Buning oqibatida ba'zi tarmoqlardagi mavjud muvozanat buziladi.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida yurgizilayotgan iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismi bo'lgan soliq siyosati mustaqil ravishda yurgizilayotgan soliq siyosati hisoblanib, uning markaziy vazifalaridan biri sifatida respublikamizda bozor munosabatlarini qaror toptirish va uni rivojlantirishga xizmat ko'rsatish qaralmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik muhitini yaratish va uni rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etganligi uchun soliq siyosati ham bizning respublikamizda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilganligi, shak-shubhasizdir.

Bir vaqtning o'zida puxta ishlab chiqilgan soliq siyosatining hayotga qanday tatbiq etilishi shu siyosatni amalga oshirishda qo'llanilishi lozim bo'lgan soliq mexanizmiga uzviy bog'liqdir. Soliq siyosatining makroiqtisodiy holatga ta'siri juda katta bo'lib, mamlakatda yaratiladigan yalpi ichki mahsulot va milliy daromadning o'zgarishi soliq siyosatining samarasiga bevosita bog'liqdir. Soliq siyosatining makroiqtisodiy holatga ta'sirini soliqlarning yalpi talab va yalpi taklifga, investision

muhitga, iste`molga, iqtisodiy barqarorlikka ta`siri kabilar bilan baholash mumkin.

Soliq siyosatini amalga oshirishda muhim bir mezon bo`lib soliq stavkalari hisoblanadi. Soliq stavkalarining o`zgartirilishi bevosita talablar yig`indisiga ta`sir qiladi. Iste`molning ham, investisiyalarning ham hajmi soliqlarning katta-kichikligiga bog`liq bo`ladi. Masalan, byudjetga soliq tushumi kamayib, davlat xarajatlari avvalgicha qolgan paytda iste`mol va investisiya xarajatlarining o`shishi rag`batlantiriladi.

Yalpi talab qanchalik ko`paygani bilan u iqtisodiyotni ishlab chiqarish imkoniyatlari (mavjud resurslar va texnologiyalarning shartli miqdori va sifati) doirasidan tashqariga «surib qo`yishga» qodir bo`lmaydi. Ishlab chiqarish imkoniyatlari chegarasiga yaqinlashganda yig`ma talabning o`shishi asosan real ishlab chiqarishning emas, balki narxlarning ko`tarilishi hisobiga ro`y beradi. Binobarin, rag`batlantiruvchi soliq-byudjet siyosati iqtisodiyot pasayish vaziyatida bo`lgandagina chinakam ijobiy samara beradi.

Soliq siyosati olib borilayotganda qisib chiqarish deb ataladigan vaziyat bilan to`qnashuv ro`y beradi. Masalan, davlat xarajatlari o`zgarmay turgan sharoitda soliq tushumlari kamaydi (yoki aksincha, davlat xarajatlari ko`payib, soliq tushumlari esa avvalgi darajasida qoldi). Davlat xarajatlari va daromadlari o`rtasidagi farqning ortishini (byudjet kamomadining o`shishini) davlat qarzlar hisobiga qoplashga majbur. Bunda davlat obligasiyalar chiqarishi mumkin, bu obligasiyalarning sotilishi moliya bozori mablag`laridan foydalanish imkonini beradi. Bunday sa`y-harakat moliya bozorida milliy jamg`armalar taklifi kamayishiga olib keladi. Natijada foiz stavkalari ko`tariladi va xususiy investisiyalar hajmi tushib ketadi. Biz ko`rgan holatda soliqlarning kamayishi tufayli kelib chiqqan byudjet kamomadining o`shishi xususiy investisiyalarni «surib chiqaradi»ki, buning natijasi o`laroq, yalpi talab darajasi o`zgarmay qoladi. Binobarin, qisqa muddat ichida surib chiqarish samarasi amal qilmaydi yoki sezilmaydigan darajada ro`y beradi: moliya bozori takomillashmagani (korxonalar kapital mablag` sarflash uchun pul oladigan kredit haqidagi bitimlar ilgari tuzib qo`yilgani) sababli investisiyalar va jamg`armalar uzoq istiqboldagina tenglashadi.

Soliq siyosatining samaradorligi sof eksport samarasi bilan cheklanadi. Biz aniqlaganimizdek, soliqlarning kamaytirilishi milliy jamg'armalar miqdorini kichraytiradi hamda ichki foiz stavkalarini kattalashtiradi. Bunday vaziyat oqibatda faqat ichki (milliy) investisiyalarning qisqarishigagina emas, balki mamlakatga chet el kapitalining oqib kirishi tezlashishiga ham olib keladi. Mazkur holatda xorij investisiyalari o'sib borayotgan ichki foizli stavkalar bilan rag'batlantiriladi.

Chet el kapitalining oqib kelishi milliy valyutaga talabni oshiradi. Natijada valyuta kursi ko'tariladi, sof eksport miqdori qisqaradi. Valyuta kursi ko'tarilganida milliy tovarlar jahon bozorida ancha qimmatlashadi, xorij tovarlari esa ichki bozorda arzonlashadi. Shunday qilib, soliqlarni kamaytirish tufayli jamiyat xarajatlarining kengayib ketishi eksportning qisqarishi va importning o'sishi bilan bog'liq yalpi talabning pasayishi hisobidan qisman tekislanadi. Bunday samara qayd etilgan valyuta kurslari sharoitida amal qilmaydi: soliqlar kamaytirilganida valyuta kursi avvalgi darajasida qoladi hamda sof eksport tegishli ravishda o'zgarmaydi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, rag'batlantiruvchi soliq siyosati faqat qisqa muddatli turkumiy tebranishlar oqibati bo'lgan iqtisodiy pasayish sharoitida, faqat qayd etilgan valyuta kurslari paytida sezilarli makroiqtisodiy samara beradi. Vaqtning uzoq oraliqlarida esa u ta'sirli bo'lmaydi. Endi soliqlarni qisqartirish oqibatlarini yalpi taklifga ta'sirini ko'rib chiqaylik. Mazkur tadbirning samarasi shundan iboratki, bunda taklifning egri chizig'i o'ngga qarab siljiydi - soliqlarning pasaytirilishi xarajatlarning qisqarishini (bu holat tadbirkorlarni ishlab chiqarishni kengaytirishga rag'batlantiradi) hamda «sof» ish haqining o'sishini (bu holat esa yollanma xodimlarni mehnat taklifini ko'paytirishga rag'batlantiradi) anglatadi. Bunda (soliqlarning kamaytirilishi oqibatida) yalpi talab odatda yalpi taklifga nisbatan ko'proq o'sib boradi. Shuning uchun ham ishlab chiqarishning kengayishi bilan bir qatorda narxlarning umumiy darajasi ko'tarilishi kuzatiladi. Biroq yig'ma taklif darajasining o'zgarishi uzoq davom etadigan murakkab jarayondir. Shuning uchun ham makroiqtisodiy barqarorlik maqsadiga erishish uchun davlat eng avvalo yalpi taklifga emas, balki yalpi talabga ta'sir ko'rsatishga intiladi. Buning ustiga, hozirgi zamon iqtisodchilarining aksariyati hisoblashicha, makroiqtisodiy beqarorlik (iqtisodiy


turkumlar) asosan yig'ma talab beqarorligining oqibatidir. Masalan, iqtisodiyot yalpi talabning salbiy o'zgarishi ta'siri tufayli pasayish jarayonini boshdan kechirmoqda. Bunday holatda davlat jamiyatning yig'ma xarajatlarini soliqlarni kamaytirish va davlat xarajatlarini kengaytirish vositasida rag'batlantirishga intiladi. Agar hukumat iqtisodiyotning «zo'riqishi»dan xavotirlansa yoki pulning qadrsizlanish sur'atlarini sekinlashtirishni istasa, u holda o'zining moliya siyosatini qattiq olib borishda soliqlarni oshirishi va davlat xarajatlarini qisqartirishi lozim bo'ladi.

Soliqqa tortish tamoyillari soliq munosabatlarini amaliyotda tashkil etish, soliqqa tortish, uni undirish amaliyotining mazmunini ochib beradi.

Hozirda soliqqa tortish samarali tizimining quyidagi tamoyillarini ta'riflab o'tish mumkin:

- ❖ Soliqqa tortishning yetarlilik tamoyili;
- ❖ Soliqqa tortishning tadbirkorlik va investisiyalarni rag'batlantirish tamoyili;
- ❖ Soliqqa tortishning adolatlilik tamoyili;
- ❖ Soliqqa tortishning oddiylik va xolislik tamoyili;
- ❖ Soliqqa tortishning boshqarishga qulaylik tamoyili;
- ❖ Soliqqa tortishning soliqlarni yig'ish jarayonini imkon qadar arzonlashtirish tamoyili;
- ❖ Soliqqa tortishning soliq stavkalarini qiyoslash tamoyili.

1. Soliqqa tortishning yetarlilik tamoyili. Mazkur tamoyilga muvofiq soliqqa tortish darajasi shunday bo'lishi lozimki, u davlat intilayotgan xalq xo'jaligi samaradorligiga erishishni kafolatlay olsun. Soliqqa tortish tizimi iqtisodiyot, ijtimoiy himoya, mudofaa qobiliyati va boshqa sohalardagi davlat siyosatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moliya resurslari to'planishini ta'minlasin.



**1.2.1-chizma. Soliqqa tortish tamoyillari<sup>7</sup>**

2. Soliqqa tortishning tadbirkorlik va investisiyalarni rag'batlantirish tamoyili. Soliq tizimi xo'jalik yurituvchi sub'yektlarni, jumladan, chet el sub'yektlarini, ishlab chiqarishni rivojlantirish, uskunalar va zamonaviy texnologiyalar sotib olish uchun mablag' yo'naltirishni, ya'ni kapital jamg'arish va shu yo'l bilan texnologiyalarni takomillashtirish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirishi lozim.

3. Soliqqa tortishning adolatlilik tamoyili. Adolat tamoyillariga muvofiq, soliqlar jamiyat tomonidan oqilona va adolatli deb tan olingan umumiy ob'yektiv qoidalarga binoan belgilanishi lozim. Adolatlilik tamoyilining bir qancha asosiy guruhdagi soliqqa tortish tamoyillariga bo'linadi. Bularni ikki guruhga bo'lgan holda o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bunda gorizontaal va vertikal adolatni bir-biridan farqlash lozim.

<sup>7</sup> [www.soliq.uz](http://www.soliq.uz) sayti ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Gorizontal adolat tamoyili daromad olishning turli sharoitlarida soliq to'lovchilarga nisbatan soliqqa tortishning taxminan teng shartlarini qo'llashni ko'zda tutadi.

4. Soliqqa tortishning oddiylik va xolislik tamoyili. Bu tamoyil soliqqa tortish bazasini aniqlashda, soliqlarni hisoblab chiqishda oddiylik bo'lishini, taqdim etiladigan hisobotlarning mazmunini soddalashtirishni, shuningdek soliqlarning eng muhim turlari bo'yicha yagona stavkalar belgilashni, beriladigan imtiyozlarni iloji boricha kamaytirishni ko'zda tutadi. Bu o'rinda nazarda tutilayotgan narsa shuki, soliqlarning rag'batlantirish funksiyasi doirasida beriladigan imtiyozlar yakka tartibdagi xususiyatga ega bo'lmasligi, balki muayyan faoliyat turlarini rag'batlantirishga, soliq to'lovchilarning mulkchilik shakli va qaysi idoraga mansubligidan qat'i nazar, ma'lum turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni ko'paytirishga qaratilmog'i lozim.

5. Soliqqa tortishning boshqarishga qulaylik tamoyili. Samarali soliq tizimiga qo'yiladigan muhim talablardan biri boshqaruvga qulay bo'lishidir. Soliqlarni undirib olishda samaradorlikka erishish ko'p hollarda soliqlarning soliq to'lovchilarga yaxshi tushunarli bo'lishiga bog'liq. Ayrim mamlakatlarda soliqqa tortishning nihoyatda murakkab tartibi amal qiladi, aytaylik, shkala va stavkalar turi, soliqlar tarkibi, ularni to'lash qoidalari va tartiblari haddan tashqari ko'p. Buning ustiga ular soliq tushumlarining ko'payishiga hech qanday yordam bermaydi hamda soliqlarning rag'batlantiruvchi funksiyasi bajarilishida rol o'ynamaydi.

6. Soliqqa tortishning soliqlarni yig'ish jarayonini imkon qadar arzonlashtirish tamoyili. Mazkur tamoyil davlat va soliq to'lovchilar tomonidan soliqlarni yig'ish uchun ketadigan xarajatlarni mumkin qadar kamaytirishni ko'zda tutadi. Buning uchun respublikamizda soliqqa tortish tartibini takomillashtirish bilan bir qatorda soliqlarni maqbullashtirish, kompyuter texnologiyalari, soliq axborotlarining to'g'riligini bevosita nazorat qilish usullarini qo'llash orqali soliq to'lovchilarning xarajatlarini kamaytirish maqsadida davlat hisobidan saqlanadigan servis-markazlar, soliqqa tortish masalalari xususida soliq organlari tomonidan bepul maslahatxonalar tashkil etilgan.

7. Soliqqa tortishning soliq stavkalarini qiyoslash tamoyili. Soliq stavkalari boshqa davlatlardagi xuddi shunday soliqlarning stavkalari bilan qiyoslanishi, ya'ni

mintaqaning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olingan holda boshqa mamlakatlar bilan teng bo'lgan xo'jalik faoliyati shart-sharoitlari vujudga keltirilishi lozim. Agar qattiq shartlar belgilab qo'yilgudek bo'lsa, bu hol respublika iqtisodiyotiga investisiyalarni jalb qilishni mushkullashtirib yuboradi, aksincha, yengil sharoit yaratilsa, mamlakat byudjetiga salbiy ta'sir qiladi.

Ushbu tamoyillarni soliq siyosatini to'g'ri olib borishda bir-biri bilan chanbarchas bog'liqlikda asoslanishi maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

### **1.3. Xorijiy rivojlangan mamlakatlarda soliq siyosatini takomillashtirish tajribalari.**

Soliqlarning qo'llanib kelinishi qadimiy tarixga egadir. Soliq milliy daromadning bir qismi bo'lib, majburiy va qaytarib bermaslik tamoyili asosida aholidan va yuridik shaxslardan davlat tomonidan o'z xarajatlarini qoplash uchun olinadi. Iqtisodchi olimlarning fikricha, «Soliqda davlatning borlig'ining iqtisodiy ifodasi gavdalanadi».<sup>8</sup>

Quldorlik va feodalizm davrida natural xo'jalik asosiy rolni o'ynagani uchun soliq natural – yig'im sifatida qo'llangan (oziqovqat, armiya uchun oziq-ovqat, yem-xashak va h.k.). Tovar-pul munosabatlari rivojlanishi bilan davlatlar daromadida pul soliqlarining roli oshib boradi. Bu har bir kishi (jon boshi) dan olinadigan soliq, yer solig'i va hunarmandchilik soliqlaridir. Bundan tashqari, egri soliq hisoblangan aksizlar ham qo'llanilgan.

Soliqning og'irligi, asosan, dehqonlar zimmasiga tushib, ijaraga olish (ulgurji, ko'tarasiga sotib olmoq) qo'llangandan keyin yana ham og'irlashgan. Ijaraga olish – savdogarlarga ma'lum davrga va ma'lum to'lov asosida aholidan yig'ish uchun davlat soliqlari va boshqa daromadlarni to'plash huquqini beradi. Bundan tashqari, ma'lum tovarlarni sotish huquqiga ham ega bo'ladi. Davlat bilan tuzilgan shartnoma bahosi bilan savdogar yig'ib olgan summasi o'rtasidagi farq uning foydasini tashkil qilgan.

---

<sup>8</sup> Д. Рикардо. Сочинения. Т. 1. Начало политической экономики и налогового обложения. Пер. с англ. М., «Госполитиздат», 1990, стр. 360.



Davlat va xususiy ijaraga olish tizimi quldorlik davridan kelib chiqib, feodalizmning yemirilishi va kapitalistik ishlab chiqarish usuli vujudga kelish davrida juda keng tarqalgan va kapitalning boshlang'ich jamg'armasiga asos bo'lgan. Ijaraga olish tizimi natural xo'jalikning ustunligi, davlat xazinasiga mablag' to'playdigan moliya apparatining «bo'shlik» qilishi natijasida yuzaga kelgan.

Birinchi ijaraga olish eramizdan avvalgi VI asrda Eronda kelib chiqqan. Yunoniston va Rimda esa eramizdan oldingi IV asrda tarqalgan. O'rta asrda esa bu tizim Yevropada qo'llanilgan. Ayniqsa, Fransiyada XIII asrda keng rivojlangan. XVI—XVII asrda Italiya, Gollandiya va Ispaniyada bu tizim evolutsiyasining yuqori darajasiga ko'tarildi.

Angliyada ijaraga oluvchilar davlat kreditori rolini bajarishgan. Rossiyada XV asrning oxiri — XVI asrning boshida ijaraga olish tizimi keng miqyosda qo'llanilgan. Eng taraqqiy etgan turlari – boj, tuz, vino to'lovlarini ijaraga olish bo'lgan.

Davlat xazinasiga tushadigan soliqning 40 % dan ortig'i ichimlik solig'idan kelib tushgan. Rossiyada 1863-yili vino to'lovini ijaraga olish bekor qilinib, aksiz solig'i bilan almashtirilgan. Ijaraga olish Hindistonda XIX asrgacha, Eronda esa XX asrgacha qo'llanilgan.

O'zgacha shaklda ijaraga olish XX asrda ham davom etgan. Masalan, Italiyada ayrim soliqlar banklar, omonat kassalari tomonidan yig'ilgan. Amerikada ijaraga olish XX asrning boshlarida boqimandani to'plashda qo'llangan. Monopolistik kapitalizm davrida soliq juda keng taraqqiy etadi. Davlatning harbiy, boshqaruv xarajatlari ko'payishi bilan soliq hajmi hamda uning turlari ko'payib boradi.

Ikkinchi Jahon urushidan keyin har 10 yilda soliq 1.5 marta va undan ham ortiq ko'payib turgan. Keyingi davrlarda rivojlangan davlatlar markaziy budjetlarining 90 % daromadi va mahalliy budjetlarining 80 % daromadi soliqlardan kelib tushgan.

Davlat mulkiga asoslangan korxonalar kam foyda keltiruvchi va zarar ko'radigan bo'lganligi sababli, ularning to'lovlari budjet daromadining 5—8 % ini tashkil qilgan. O'sish sur'ati bo'yicha soliq yalpi milliy mahsulot hajmining o'sishidan tez hamda uning salmog'i ham oshib borgan. 1984-yili soliqning yalpi milliy mahsulot

hajmidagi salmog‘i Fransiyada —45.4 %, Buyuk Britaniyada — 38.6 %, GFRda — 37.3 %, AQSHda — 29 %, Yaponiyada 27.7 % ni tashkil qilgan<sup>9</sup>.

Hozirda rivojlangan davlatlarda soliqni majburiy ravishda hamma sinf vakillari to‘laydilar. Lekin yirik konsernlar dotatsiya va subsidiya ko‘rinishida budjetdan yordam olishlari mumkin. Sanoati rivojlangan davlatlarda keyingi davrda to‘g‘ri soliqlarni undirish kuchaytirilgan. Ularning ichida asosiy davlat solig‘i bo‘lib daromad solig‘i xizmat qiladi. 1970-yildan boshlab, egri soliqlarni olish ham kuchayib ketdi. Bunday vaziyat, ayniqsa, qo‘shilgan qiymatdan olinadigan soliq kiritilgandan keyin muhim ahamiyat kasb etdi.

Davlat solig‘i bilan bir qatorda mahalliy soliqlar ham tez sur‘atda o‘sa boshladi. Umumiy soliq hajmida ularning salmog‘i o‘tgan asrning 80-yillarida AQSHda 30 %, Germaniyada 48 %, Yaponiyada 30 % ni tashkil qilgan. Soliqning og‘irligi yana sotsial sug‘urta fondiga badal olish bilan kuchaytiriladi. Germaniya, Fransiya, Italiyada soliqning 30 % dan ko‘prog‘i bu badallarga to‘g‘ri keladi. Sotsial sug‘urtaga ajratma mehnatkashlar daromadidan ayirib olinib, AQSHda 48 %, Fransiyada 20 %, Germaniyada 26 % ni tashkil qiladi.

Tadbirkorlar ijtimoiy sug‘urtaga ajratmani mahsulot tannarxiga qo‘shadilar va uning og‘irligi tovar sotib oluvchilar zimmasiga bahoni oshirish orqali yuklatiladi. Shunday qilib, to‘g‘ri va egri soliqlar, sotsial sug‘urta fondiga badal to‘lash davlat xazinasiga pul to‘plashning asosiy yo‘llari bo‘lib, ularning og‘irligi, asosan, kam ta‘minlangan aholi zimmasiga tushadi va moliya oligarxiyasining boyishi uchun xizmat qiladi.

Qo‘llanayotgan iqtisodiy siyosatga binoan hozirgi davrda rivojlangan davlatlar soliqni iqtisodni boshqarish quroli sifatida ishlatadilar. Shu maqsadda soliq stavkasi, uni undirish usuli, soliq yengilligi, skidkasi ishlatiladi. Bu tadbirlar ijtimoiy ishlab chiqarish tarkibiga, muvozanatiga, kapitalni jamg‘arishga, sotish bozoriga, ishlab chiqarish davrlariga ta‘sir ko‘rsatadi. Soliq ijtimoiy ishlab chiqarishning I va II

---

<sup>9</sup> S.K. Xudoyqulov. Soliq tizimi. Darslik. T. — «ILM ZIYO» — 2017

bo'limlarining o'sish darajasiga ta'sir qilib, ularning tenglashishiga va I bo'limning II ga nisbatan tezroq rivojlanishi uchun imkoniyat yaratib beradi.

Hozirda rivojlangan davlatlarda soliqni majburiy ravishdamma sinf vakillari to'laydilar. Lekin yirik konsernlar dotatsiyava subsidiya ko'rinishida budjetdan yordam olishlari mumkin. Sanoati rivojlangan davlatlarda keyingi davrda to'g'ri soliqlarni undirish kuchaytirilgan. (1.3.1-diagrammaga qarang) Ularning ichida asosiy davlat solig'i bo'lib daromad solig'i xizmat qiladi. 1970-yildan boshlab, egri soliqlarni olish ham kuchayib ketdi. Bunday vaziyat, ayniqsa, qo'shilgan qiymatdan olinadigan soliq kiritilgandan keyin muhim ahamiyat kasb etdi. Davlat solig'i bilan bir qatorda mahalliy soliqlar ham tez sur'atda o'sa boshladi. Umumiy soliq hajmida ularning salmog'i o'tgan asrning 80-yillarida AQSHda 30 %, Germaniyada 48 %, Yaponiyada 30 % ni tashkil qilgan. Soliqning og'irligi yana sotsial sug'urta fondiga badal olish bilan kuchaytiriladi. Germaniya, Fransiya, Italiyada soliqning 30 % dan ko'prog'i bu badallarga to'g'ri keladi. Sotsial sug'urtaga ajratma mehnatkashlar daromadidan ayirib olinib, AQSHda 48 %, Fransiyada 20 %, Germaniyada 26 % ni tashkil qiladi.

Davlat soliq va davlat xarajatlari orqali aholining to'lov qobiliyatiga va uning hajmiga ta'sir ko'rsatadi. Soliq orqali aholi daromadiga ta'sir qilib, kengaytirilgan ishlab chiqarish davrini boshqaradi va maromiga keltiradi. Soliq solishni ko'paytirib, aholi daromadini kamaytirib yoki soliq solish asosida aholi daromadini ko'paytirib davlat kengaytirilgan ishlab chiqarishning bir me'yorda o'sishiga sharoit yaratadi. Agar umumlashtirilgan holatda tahlil qilinsa, soliq orqali iqtisodni boshqarish chegaralangan xarakterga ega degan xulosaga kelish mumkin. Bu bilan talabning barchasini qamrab olmaydi. Soliq qarama-qarshi kuchlarga ega. Ba'zi vaqtda iqtisodning o'sishiga sharoit yaratish o'rniga unga xalaqit ham berishi mumkin.

Rivojlangan mamlakatlarda soliqlar (ayrim holatlardan tashqari) har xil nomlar bilan quyidagi asosiy shakllarga ega:

- Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- Yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- qo'Shilgan qiymatga solinadigan soliq;
- Aylanmaga solinadigan soliq;

- Ijtimoiy sug'urta fondiga ajratma va iste'molga qo'llanadigan maxsus soliq turlari va boshqalar.

Tovarlarni ishlab chiqarish va sotish orqali yuzaga keladigan daromadlar va xarajatlar oqimini soliqqa tortishdan tashqari to'plangan boyliklarni soliqqa tortish ham yuzaga chiqadi. Ularning asosiy turlari: mol-mulk solig'i hamda meros va hadya solig'i.

Rivojlangan mamlakatlarda soliq tarkibi oxirgi yillari quyidagi belgilar bilan ta'riflanadi<sup>10</sup>:

- ✓ *birinchidan*, ayrim mamlakatlarning iqtisodiy daromad turlaridan olinadigan soliqlarga nisbiy bog'liq va o'zgarib turish xarakteriga ega;
- ✓ *ikkinchidan*, 1975-yilgacha Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkilotiga (OBSR) kiradigan mamlakatlarda iste'molga solinadigan soliqlar salmog'i nisbiy o'zgarmagan holda daromad solig'i salmog'i va ijtimoiy sug'urtaga ajratmaning salmog'i o'sib bordi. XX asrning yetmishinchi yillari ikkinchi yarmidan iste'molga solinadigan soliqning salmog'i ko'tarilib bordi. Bu, ayniqsa, Daniya, Finlandiya va Buyuk Britaniya davlatlarida namoyon bo'ldi;
- ✓ *uchinchidan*, iste'molga solinadigan soliq bilan aksiz solig'ining salmog'i ko'pchilik mamlakatlarda bir xil. Lekin 70—80-yillar birinchisining roli oshib bordi, oxirgisi esa pasaya boshladi.

Iste'molga solinadigan soliq va aksiz soliqlarining salmog'i ko'pchilik mamlakatlarda bir xil. Lekin o'tgan asrning 70—80-yillarida birinchisining salmog'i oshib, ikkinchisining esa kamayib bordi. Umuman, daromad solig'i va ijtimoiy sug'urta fondiga ajratma hajmi ko'payib bordi. Aksizlarning salmog'i hamma davlatlarda tushib ketdi, kompaniyalar foydasidan olinadigan soliq deyarli hamma davlatlarda kamayib ketdi.

Umumiy qabul qilingan soliqlarni to'g'ri va egriga bo'lish, bir tomondan daromadlarga soliq solishni anglatasa, ikkinchi tomondan xarajatlarga soliq solishni anglatadi. Haqiqatda ularning o'rtasidagi farq nisbiy xarakterga ega va bu soliqlarni

---

<sup>10</sup> S.K. Xudoyqulov. Soliq tizimi. Darslik. T. — «ILM ZIYO» — 2017

to'lovchilar zimmasiga yuklatishga bog'liq.

Kompaniyalarning foydasidan olinadigan soliq to'g'ri soliq hisoblanadi. Agar bu xarajat bahoning ustiga qo'yilib sotilsa, egri soliqqa aylanadi. Qo'shilgan qiymat solig'ini bahoga qo'shish imkoniyati bo'lmasa, u to'g'ri soliqqa aylanadi. Faqat to'g'ri va egri soliqlar nisbiy hisoblanadi, lekin to'g'ri va egri soliqqa tortish tizimi bunday hisoblanmaydi. Bu tizim haqiqatda mavjud bo'lib, soliqlar yig'indisi asosida to'liq harakat qiladi.

Oxirgi o'n yillikda to'g'ri soliqdan olinadigan daromadning o'rtacha elastikligi 1 dan ortiq, egri soliqniki esa 1 dan past. Bundan ko'rinib turibdiki, rivojlangan davlatlarning soliq tizimi yuqori darajadagi egiluvchanlikka ega. Shuning uchun, ichki yalpi mahsulot o'sishi bilan, ularning «avtomatik» ravishda soliq daromadlari oshadi.

Hozirgi kunda ko'pchilik mamlakatlar soliq solishning yuqori darajasiga yetdi (davlat tomonidan milliy daromadning bir qismini olish). Ayniqsa, bu masala ijtimoiy-siyosiy nuqtayi nazardan tahlil qilinsa, soliq solishni yanada kuchaytirish, ko'tarish, jamiyatning iqtisodiy tabiatida sifatli o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Bu muammo eng dolzarb va faol bo'lib, hamma soliq sohasidagi tadbirlar shu masalani yechishga qaratilgan. Rivojlangan mamlakatlarda har xil atamalar bilan yuritiladigan soliqlarning asosiy shakllari quyidagilar: jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, oborot solig'i, ijtimoiy sug'urta fondiga ajratma, iste'mol bo'yicha maxsus soliqlar.

Chet el mamlakatlarining ma'lumotlari asosida soliq solish siyosatining asosiy yo'nalishlarini taxminan bilish mumkin. Soliq oshishining asosiy yo'nalishlarini quyidagicha guruhlar bilan ifodalash mumkin:

- 1) korporatsiya solig'i va kompaniyalarning foydasiga solinadigan boshqa soliqlar;
- 2) tadbirkorlarning ijtimoiy sug'urta fondiga ajratmasi;
- 3) qo'shimcha qiymat hisobidan beriladigan egri soliqlar;
- 4) aholidan olinadigan daromad solig'i;
- 5) soliq tizimining milliy xususiyatini ifodalovchi soliqlar.

Korporatsiya va kompaniyalarning foydalaridan olinadigan boshqa soliqlar markaz va mahalliy darajalarda soliq olinadigan sof foydadan ma'lum stavkada

olinadi. Bu to'lov soliq olishning asosiy shakli hisoblanadi. Lekin foydadan olinadigan soliqning umumiy daromaddagi salmog'i katta emas. Oxirgi yillari AQSHda 8—10 %, Buyuk Britaniyada 7.5 % va Germaniyada 5 % ni tashkil qiladi. Kelajakda buning salmog'i yana tushib borayotgani sezilyapti. Umuman, bu soliqning fiskal ahamiyati katta emas.

Mustaqil daromadga ega bo'lgan shaxslardan daromad solig'i olish mazmunan foydadan olinadigan soliqqa o'xshaydi. Bu daromadlar dividend, foiz, renta va fuqarolarning (tijorat) faoliyatidan olinadigan daromatlardan tashkil topadi. Soliq jismoniy shaxslarning sof daromadidan olinadi. Shuning uchun ham o'xshash hisoblanadi. Umumiy daromadda uning salmog'i ham katta emas. Masalan, oxirgi yillarda AQSHda 10—14 %, Buyuk Britaniyada 6—7 % va Germaniyada 5—7 % ni tashkil qildi. Bu soliqdan olinadigan daromad dinamikasi barqaror emas va tushib borish tendensiyasi sezilmoqda. AQSHda 1986-yilgi soliq islohotida bu soliqda progressiya kamaytirilgan. Ayniqsa, maksimal shkala va stavka darajasi pasaytirilgan. Bundan tashqari, dividendlarni ikki marta soliqqa tortish bo'shashib boryapti.

Katta daromadlar bo'yicha progressiyani kamaytirib dividendlarni ikki marta soliq solishdan ozod qilishdan maqsad, aksioner kapitalni yangi investitsiyalarni moliyalashtirish, jamg'arma to'plashda soliq to'sqinligini kamaytirib, yashirincha iqtisodni chegaralashdan iborat. Ijtimoiy sug'urta fondiga tadbirkorlarning ajratmasi ish haqi fondiga nisbatan qat'iy belgilangan yoki proporsional stavka bilan olinishi ko'zda tutilgan. Ajratma ishlab chiqarish xarajatiga kiradi va ishchi kuchini kengaytirilgan asosda ishlab chiqarish uchun qaratilgan. Ajratma davlatga ham, tadbirkorga ham qulay to'lov shakli hisoblanadi. Davlatga bu katta daromad manbayi, tadbirkorga esa uning og'irligi korporatsion soliq bo'yicha soliq olinadigan foydaning pasayishi hisobiga kamaytiriladi. Bundan tashqari, bu xarajat mahsulot bahosiga kiritilib, iste'molchi zimmasiga o'tkaziladi. Masalan, bu soliq AQSHda 15 %, Buyuk Britaniyada 13 % va Germaniyada 25 % dan ortiqni tashkil qilgan. Ushbu soliq shakli barqaror xarakterga ega bo'lib, oxirgi yillarda o'sish tendensiyasiga egadir.

Egri soliqlar. Iste'moldan olinadigan ushbu soliq tadbirkorlar ajratmasiga o'xshash xarakterga ega va soliq olishning asosiy shakllaridan hisoblanadi. AQSHda 8—9 %, Buyuk Britaniyada 20 % dan ortiq, Germaniyada 18 % ni tashkil qilmoqda.

Ushbu to'lovning ahamiyati Buyuk Britaniyada yildan yilga oshib bormoqda, AQSH va Germaniyada esa barqaror bo'lib qolyapti. Bularda bu soliqlarning farqi shundan iboratki, AQSHda bu soliqlar shtat va mahalliy organlarga qarashli, Buyuk Britaniya va Germaniyada esa u umumdavlat solig'i hisoblanadi. Iste'moldan olinadigan egri soliq AQSHda, asosan, sotishdan olinadigan soliq bo'lib, Buyuk Britaniya va Germaniyada esa u qo'shilgan qiymat solig'i shakllarida qo'llaniladi. Bu soliqlar keng iste'mol tovarlariga qo'llanib, bir qancha yuqori stavkalarda olinadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i o'zining afzalliklari bilan keng miqyosda tarqalib bormoqda va kelajakda soliq yig'ishning asosiy metodlaridan biri bo'lib qoladi.

Yollanma ishchilarning (nominal ish haqidan) daromadidan olinadigan soliq o'z tarkibiga daromad solig'i va ijtimoiy sug'urta fondiga ajratmalarni qamrab oladi. Buyuk Britaniya va Germaniyada uning salmog'i sezilarli katta, ya'ni 17 % dan 25 % gacha, AQSHda esa ancha past. Daromadni soliqqa tortish tizimi deyarli hamma rivojlangan mamlakatlarda bir xil. Lekin ularning har birida qo'shimcha usullari mavjud bo'lib, o'z milliy xususiyatlariga egadir.

Soliq tizimining umumiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- ✓ hamma soliq to'lovchilar rezident va norezidentlarga bo'linadi. Rezident deb hisoblash uchun asosiy belgi — jismoniy shaxs shu mamlakatda 6 oydan ortiq bo'lishi kerak. Soliq to'lovchilarni rezident va norezidentga bo'lishdan maqsad rezidentlar daromad solig'ini ichki va tashqi manbalaridan to'laydilar. Ya'ni soliq javobgarligini global daromadi bo'yicha taqdim etadilar. Norezidentlar faqat shu mamlakatda olgan daromadlari yuzasidan chegaralangan soliq javobgarligini beradilar;
- ✓ daromad solig'i undirilishida boshlang'ich asos — soliq to'lovchining umumiy daromadi hisoblanadi. Bu daromadga har xil manbalar kiradi: ish haqi, nafaqa, natural shaklida haq to'lash va h.k.

Daromad solig'i olishda umumiy daromad bilan soliq solinadigan daromad bir-biriga to'g'ri kelmaydi. Soliq stavkasi so'nggi daromadga nisbatan qo'llaniladi. So'nggi olingan daromad umumiy daromaddan soliq bo'yicha qonuniy berilgan imtiyozlar summasiga farq qiladi. Ushbu imtiyozlar soliq olinmaydigan minimum, kasb bo'yicha xarajatlar, oilalar uchun imtiyozlar, farzandlar uchun imtiyozlar, ijtimoiy sug'urtaga ajratmalardan tashkil topadi.

Ko'pchilik davlatlarda universal imtiyoz bo'lib, soliq olinmaydigan minimum hisoblanadi. Imtiyozlarning qolgan turlari ayrim davlatlardagina beriladi. Masalan, Fransiya, Germaniya, Yaponiyada qo'llanadi. Italiyada umumiy daromad soliqolinadigan daromadga teng bo'ladi. Bu davlatda ijtimoiy sug'urta fondiga ajratma berilgandan keyin umumiy daromad soliq olinadigan daromadga teng bo'ladi. Rivojlangan mamlakatlarda umumiy daromaddan soliqdan imtiyoz berish soliq imtiyozlarining asosiy shakli hisoblanadi. Soliq summasini kamaytirish qo'llanilmaydigan hollarda soliqning hisobga olinishi yoki daromad solig'i bo'yicha to'lovchining soliq majburiyatini kamaytirish qo'llanadi. Soliq imtiyozlaridan (skidka, zachot) tashqari, ayrim rivojlangan mamlakatlarda bolalarga davlatdan to'g'ridan to'g'ri to'lov beriladi, bu esa daromadni soliqqa tortishni kamaytiradi. Oilaning daromadi belgilangan chegaradan yuqori bo'lmagan hollarda to'lovning hajmi bolalarning soniga bog'liq, chegaradan yuqori bo'lsa, to'lov chegaralanadi.

Yuqorida keltirilgan doimiy soliq imtiyozlari bilan bir qatorda yuqorida qayd etilgan davlatlarda vaqtinchalik imtiyozlar qo'llaniladi. Bu imtiyozlar ma'lum guruh xarajatlariga nisbatan qo'llaniladi. Ushbu xarajatlarga quyidagilar kiradi: zayomlar bo'yicha foizlar, hayotni sug'urta qilish badali, ayrim professional xarajatlar va h.k.

Daromad solig'ining stavkasi, qoida bo'yicha, progressive shaklda qo'llanilib, ular murakkab progressiv stavkalar tartibida tuziladi. Oxirgi yillari yuqori stavkalar keskin pasayib ketdi va stavkalar soni kamaydi. Proporsional stavkaga o'tish darajasining yuksalishi kuzatilmoqdadir. Angliyada, asosan, 2 ta stavka: 25 va 40 % li stavkalar qo'llaniladi. Italiyada esa yuqori stavka 56 % ga va Yaponiyada 60 % ga tushirilgan.



Ishlaydigan er va xotin daromad solig'ini ixtiyoriy, daromadlarining umumiy yig'indisidan to'laydilar yoki ixtiyoran har biri alohida to'laydi. Ba'zi davlatlarda qo'shilgan umumiy daromaddan soliq kamroq to'lanadi. Qoida bo'yicha daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta fondiga ajratma ish haqi kabi manbalardan ishxonada to'lanadi. Boshqa turdagi daromadlardan soliq er-xotin birgalikda yoki alohida yozgan deklaratsiyalari asosida olinadi.

## **II 606. Iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishda O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari va uni takomillashtirish yo'llari.**

### **2.1. O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatining davlat budjetini barqarorlashtirishdagi roli.**

Davlat budjetining daromadlari o'zlarining manbalari, ijtimoiy-iqtisodiy xarakteri, mulkchilik shakli, soliq va to'lovlarning turi, mablag'larning tushish shakli va ularni budjetga undirish metodlariga muvofiq klassifikatsiya qilinishi mumkin.

Eng avvalo, Davlat budjetining daromadlari o'zlarining manbalariga ko'ra quyidagi uch guruhga bo'linadi:

- soliqli daromadlar;
- soliqsiz daromadlar;
- tiklanmaydigan (qaytarilmaydigan) tarzda o'tkaziladigan pul mablag'lari.

Budjetning daromadlar qismini to'ldirishning manbalaridan biri budjet tizimida boshqa darajada turgan budjetdan dotatsiyalar, subvensiyalar va subsidiyalar yoki mablag'larni qaytarilmaslik va tiklamaslikning boshqa shakllarida olinadigan moliyaviy yordamdir. Bunday moliyaviy yordamlar mablag'larni oluvchi budjetning daromadlarida o'z ifodasini topishi kerak. Jismoniy va yuridik shaxslardan, xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar hukumatlaridan qaytarilmaydigan yoki tiklanmaydigan shaklda o'tkazilayotgan mablag'lar ham budjetning shunday daromadlari tarkibiga kiradi.

Hozirgi amaliyotda Davlat budjetining daromadlari quyidagi tartibda klassifikatsiya qilinayapti:

1. To'g'ri (bevosita) soliqlar.
2. Egri (bilvosita) soliqlar.
3. Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i.
4. Ustama foydadan olinadigan soliq.
5. Boshqa daromadlar.

Milliy iqtisodiyotda qo'llanilayotgan Davlat budjeti daromadlari tizimining samaradorligi mablag'larning budjetga tushumini tashkil etishga bevosita bog'liq. Bu

narsa o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- budjetga tegishli bo'lgan daromadlarni (soliqlar, to'lovlar, bojlar;
- ajratmalar va boshqalar) huquqiy jihatdan rasmiylashtirish;
- mablag'lar tushumining hajmi va muddatlarini aniqlash tartibi;
- daromadlarni (to'lovlarni) budjetga o'tkazish tartibi;
- budjetga daromadlarni to'lovchilarni hisobga olish;
- budjetga daromadlarni to'lovchilarning javobgarligi;
- budjetga daromadlarni o'z vaqtida va to'liq o'tkazilishini
- ta'minlashga yo'naltirilgan chora-tadbirlar tizimi;
- budjetga daromadlarni undirishda soliq organlarining huquq va majburiyatlari;

Bizning fikrimizcha, soliqlar - yuridik va jismoniy shaxslardan qonunda belgilangan tartibda undiriladigan, mohiyati jihatidan soliq to'lovchi bilan davlat o'rtasidagi majburiy harakterga ega bo'lgan pul munosabatlarini bildiruvchi, davlat yoki mahalliy (munitsipal) tuzilmalarni moliyaviy ta'minlash maqsadida begonalashtirish shaklida undiriladigan majburiy, yakka tartibdagi qaytarib berilmaydigan to'lovdir.

Soliqlar mohiyatini yanada chuqurroq o'rganish uchun ularni bevosita (to'g'ri) va bilvosita (egri) soliq'larga bo'lib o'rganish zarur. Chunki soliqlar davlat budjeti daromadini shakllantirishdagi iqtisodiy mohiyatiga qarab aniq soliqqa tortiladigan ob'ektlardan olinadigan va soliq to'lovchilarning faoliyati natijasida hosil qilingan qo'shimcha qiymat ya'ni foydadan undiriladigan xo'jalik sub'ektlarining moliyaviy xo'jalik faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi (to'g'ri) soliq'larga va mahsulotlar, ishlar va xizmatlar qiymatidan oborot stavkasi sifatida iste'molchi hisobidan undiriladigan bilvosita (egri) soliqlar turkumiga bo'lingan.

2012 yilda davlat budjetiga bevosita soliqlarning tushumi davlat budjetining jami daromadlarining 25.5 %, 2013 yilda 24.2 %, 2014 yilda 23.4 %, 2015 yilda 24.1%, 2016 yilda 24 % ni va 2017 yilda 23.2 % tashkil qildi. (2.1.1-diagrammaga qarang) Joriy yilda davlat budjetiga bevosita soliqlarning tushumi davlat budjeti jami daromadlarining 20.6 % ni tashkil qilgan.

Budjet daromadlari tarkibida bevosita soliqlarning ulushining kamayishi yuridik va jismoniy shaxslarni daromad solig'iga tortish stavkasini pasaytirilishi hisobiga ro'y berdi. Bilvosita soliqlar bo'yicha tushumlarni davlat budjeti jami daromadlari tarkibidagi ulushi 2012 yili 49 %, 2013 yili 51 %, 2014 yili 53.1 %, 2015 yili 52.6 %, 2016 yili 51.5 %, 2017 yili 52.6 % ni tashkil etdi va 2018 yilda bu ko'rsatkich 53.7 % ni tashkil qilgan.

Shu o'rinda quyida keltirilgan diagrammada mamlakatimiz davlat budjetida bilvosita va bevosita soliqlarning tutgan o'rniga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak ularning 2012 yili bevosita soliqlar 5387.5 mlrd. so'mni, bilvosita soliqlar esa 10370.6 mlrd. so'mni, 2013 yilda esa bu ko'rsatkich bevosita soliqlar 6353.7 mlrd. so'mni, bilvosita soliqlar esa 13398.6 mlrd. so'mni, 2014 yilda esa bu ko'rsatkich bevosita soliqlar 7433 mlrd. so'mni, bilvosita soliqlar esa 16852.3 mlrd. so'mni, 2015 yilda esa bu ko'rsatkich bevosita soliqlar 8798.5 mlrd. so'mni, bilvosita soliqlar esa 19193.8 mlrd. so'mni, 2016 yilda esa bu ko'rsatkich bevosita soliqlar 9852.8 mlrd. so'mni, bilvosita soliqlar esa 21130.7 mlrd. so'mni 2017 yilda esa bu ko'rsatkich bevosita soliqlar 11538.9 mlrd. so'mni, bilvosita soliqlar esa 26133.6 mlrd. so'mni tashkil etib va 2018 yilda esa bu ko'rsatkich bevosita soliqlar 12805,4 mlrd.so'mni, bilvosita soliqlar esa 33404,3 mlrd.so'mni tashkil qilganini ko'rishimiz mumkin.

Yuqoridagi diagrammada biz yana resurs to'lovlari va mulk solig'ining davlat budjetiga tushumini tahlil qiladigan bo'lsak, 2012 yilda davlat budjetiga resurs to'lovlar va mulk solig'ining tushumi davlat budjetining jami daromadlarining 15.6 %, 2013 yili 14.8 %, 2014 yili 13.6%, 2015 yili 13.2 %, 2016 yili 13 %, 2017 yili 13.8 % ni tashkil qildi va 2018 yilda bu ko'rsatkich 15,6% ni tashkil qilgan. Soliqlarning davlat budjetida boshqa daromadlarning foiz ko'rsatkichi ham yuqori darajada. Buning natijasini biz tahlil qilib ko'radigan bo'lsak 2012-yilda davlat budjetiga boshqa daromadlarning tushumi davlat budjetining jami daromadlarining 97 %, 2013 yili 9.8 %, 2014 yili 7.8 %, 2015 yili 10.1 %, 2016 yili 11.6 %, 2017 yili 10.4 % ni tashkil qilib va 2018 yilda bu foiz ko'rsatkich 10.1 % ni tashkil qilganligini ko'rish mumkin.

Bevosita soliqlar, o'z navbatida real va shaxsiy bevosita soliqlarga bo'linishi mumkin. Bevosita real soliqlar deganda shunday soliqlar tushuniladiki, ular mol- mulk

yoki daromadlarning turli xillariga solinadi hamda ob'ektning haqiqatda keltiradigan daromadini hisobga olmasdan, uni taxminiy baholash asosida undiriladi. Hozirgi vaqtda real soliqlarning roli katta emas. Bevosita soliqlarga, masalan, yuridik shaxslarning daromad (foyda) solig'i, jismoniy shaxslarning daromad solig'i, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining yalpi daromad solig'i, yer solig'i, mol-mulk solig'i va boshqa soliqlar kiradi.

Bevosita real soliqlar o'rnini borgan sari bevosita shaxsiy soliqlar egallab bormoqda, ular ham jismoniy ham yuridik shaxslarning hisobga olingan daromadlariga solinadi. Bevosita shaxsiy soliqlar deklaratsiya asosida undiriladi. Asosan ular uchun progressiv stavkalar xosdir. Bevosita shaxsiy soliqlarga daromad solig'i, korxonalar va tashkilotlarni foyda solig'i va boshqa soliqlar kiradi.

Bilvosita soliqlar - narx yoki tarifga ustama ko'rinishida belgilanadigan, tovar va xizmatlar qiymatidan olinadigan soliqdir. Bilvosita soliqlarga tovarni sotish narxida to'lanadigan yoki tarifga kiritilgan, tovar va xizmatlarga solinadigan soliqlar kiradi, ya'ni bilvosita soliqlarning pirovard to'lovchisi bo'lib tovar iste'molchisi maydonga chiqadi, uning zimmasiga soliq narxda ko'zda tutilgan ustamalar orqali yuklanadi. Mazkur holda korxonalar o'zlari ishlab chiqargan tovarlar va xizmatlarni sotib, soliq summalarini hisobga olingan pul summalarini oladilar, so'ngra olingan barcha soliq summalarini tegishli budjetga o'tkazadilar.


Mamlakatimizda iqtisodiyotni jadal sur'atda rivojlantirish maqsadida YalM tarkibida davlat budjeti daromadlari ulushini kamaytirish choralari ko'rilmogda, ya'ni YalM da xususiy sektorning ulushini amalga oshrishga harakat qilinmogda.

Davlat budjeti daromadlari YaIMga nisbatan 2001 yili 26 % dan 2002 yili 25.2 % ga, 2003 yilda 24.2 % ni tashkil qildi. Bu 2002 yilga nisbatan bir foiz darajaga kamdir. 2004 yilda YAİM ga soliq stavkalarini pasayishi natijasida soliq tushumlari qisqarishi tendensiyasi saqlanib qoldi. Davlat budjeti daromadlari YAİMga nisbatan 2004 yilda 22.5 % ni tashkil etdi, bu esa 2003 yilga nisbatan 1.7 darajaga kamdir. 2005 yilida davlat budjeti daromadlari YAİMga nisbatan 20.8 % ni tashkil etdi va 2004 yilga nisbatan 1.7 foiz darajaga kam bo'ldi. 2006 yilning natijalariga ko'ra davlat budjetining daromadlari YAİM ga nisbatan, 2005 yildagi 20.8 % ga nisbatan 19.1 %

ni tashkil etdi. Umuman olganda davlat budjeti daromadlarini so'ngi yillarda yuqori darajada o'sib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. (2.1.2-diagrammaga qarang)

## 2.1.2-diagramma

### Davlat budjeti daromadlarining YaIMga nisbatan (% da)<sup>11</sup>



Budjet daromadlari mamlakat budjet jamg'armasini shakllantirish jarayonida davlat bilan korxonalar, birlashmalar, tashkilotlar va fuqarolar o'rtasida paydo bo'ladigan iqtisodiy munosabatlarni ifoda etadi. Bu iqtisodiy munosabatlar korxonalar, tashkilotlar va aholi tomonidan budjetga to'lanadigan turli to'lovlar ko'rinishida yuz beradi, ularning moddiy-ashyoviy ifodasi budjet jamg'armasiga yo'naltiriladigan pul mablag'lari hisoblanadi. Daromadning vazifasi budjet xarajatlarini qoplashdan iborat. Ammo, bunda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bilan o'zaro moliyaviy munosabatlarning shunday shakllarini topish zarurki, daromadlarni budjetga olish usullari mehnat unumdorligini ko'tarishga, jamiresurslardan oqilona foydalanishga, tushumlarni ko'paytirishga xizmat qilsin. Mamlakatda ishlab chiqarishni shakllantirish va rivojlantirish, budjet-soliq siyosati yaxlitligini ta'minlash, budjet taqchilligini tartibga solish kabi vazifalarni amalga oshirish uchun, davlat daromadlarini, avvalo, soliqlar

<sup>11</sup> «Перспективы развития мировой экономики» МВФ и Минфин.

orqali iqtisodiyotni boshqarish mexanizmini to'g'ri, oqilona ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish lozim bo'ladi.

Soliqlarning funksiyalari ularning mohiyatini amaliyotda harakat qilayotganligini ko'rsatadi. Shunday ekan, funksiya doimo yashab, soliq mohiyatini ko'rsatib turishi zarur. Bugun paydo bo'lib ertaga yo'q bo'lib ketadigan holatlar soliq funksiyasi bo'la olmaydilar, ya'ni shunday uslubiy yondoshishdan kelib chiqib soliqlar funksiyasini aniqlash kerak.

Hozirgi kunda soliqlarning funksiyalar masalasida katta baxslashuvlar mavjud, lekin yagona bir fikrga kelingan emas. Ko'pchilik iqtisodchilar soliqlarga fiskal, boshqaruvchi, rag'batlantiruvchi, nazorat funksiyalari xos deb e'tirof beradilar. Lekin bizning fikrimizcha hozirgi kunda respublikamiz soliqlar tizimida soliqlarning quyidagi asosiy funksiyalari ajratib ko'rsatiladi:

- soliq hisobining fiskal (xazinaga oid) funksiyasi;
- rag'batlantirish funksiyasi;
- soliq hisobining nazorat funksiyasi;
- soliqni hisoblash jarayonini axborot bilan ta'minlash funksiyasi;

Soliqlarning asosiy funksiyasi - fiskal vazifa hisoblanadi (lotincha "fiscus"-xazina). Buning ma'nosi shuki, soliqlar yordamida pul resurslarining markazlashtirilgan fondi tashkil etiladi. Unga davlat apparati qurolli kuchlarni tutib turish, shuningdek zarur ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarni bajarish uchun mamlakat hukumati egalik qiladi, ya'ni eng muhim umumdavlat, xalq xo'jaligi vazifalarini hal etish, korxonalar va fuqarolar olgan daromadlar bir qismini soliq to'lovlari sifatida olish yo'li bilan davlat budjetining daromad qismini shakllantirish soliqlar fiskal funksiyasining eng muhim elementi hisoblanadi.

Shu yerda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning soliqlar xazinani to'ldirishning asosiy elementi ekanligi to'g'risida bildirgan fikrlarini keltirmoqchimiz: «Soliqlar xazinani to'ldirish siyosatining asosiy unsuri bo'lib, davlat budjetining daromad qismi eng muhim umudavlat, xalq xo'jaligi vazifalarini hal etish

uchun zarur bo'lgan miqdorda shakllanishini ta'minlashi lozim»<sup>12</sup>. Muxtaram Birinchi Prezidentimiz ushbu fikrlari orqali ikki asosiy g'oyani ilgari surmoqdalar. Birinchidan, soliqlar xazinani to'ldirishda asosiy element ekanligi ta'kidlayaptilar, ikkinchidan, davlat budjeti daromad qismining xajmi eng muhim umumdavlat, xalq xo'jaligi vazifalarini hal etish uchun zarur bo'lgan miqdorda bo'lishi kerakligini ta'kidlamoqdalar.

Bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi sharoitida soliqlarning ikkinchi muhim funksiyasi ularning iqtisodiyotdagi tartibga soluvchilik roli hisoblanadi, ya'ni davlat soliqlar yordamida tovarlar, xizmatlarni ishlab chiqarish va sotishning iqtisodiy shart-sharoitini tartibga soladi va bu bilan xalq xo'jaligi tarmoqlarining iqtisodiy faoliyatini amalga oshirish uchun muayyan «soliq muhiti» yaratadi. Ushbu funktsiya orqali soliq tizimi ta'sir ko'rsatadi, ya'ni muayyan tarmoqda ishlab chiqarish sur'atlarini rag'batlantiradi yoki jilovlab turadi, sarmoyaning bir tarmondan soliq muhiti eng maqbul bo'lgan boshqa tarmoqqa qo'yilishini kuchaytiradi yoki pasaytiradi, shuningdek aholining to'lovga qobil talabini kengaytiradi yoki kamaytiradi. Soliqlarning iqtisodiy funksiyasi orqali davlat xalq xo'jaligi taraqqiyotini rag'batlantiradi, bu bilan fiskal funksiyalarni bajarish uchun bazani kengaytiradi. Ishlab chiqarishni soliqlarning iqtisodiy funksiyasi orqali rag'batlantirib va rivojlantirib, davlatning oqilona soliq siyosatini o'tkazish bilan davlatning soliq yukini kuchaytirmasdan turib faoliyat ko'rsatishi va yashashining shartsharoiti ta'minlanadi.

Rag'batlantirish funksiyasi soliq tizimining eng muhim funksiyalaridan biri bo'lib, ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moddiy xomashyo resurslari, shuningdek moliyaviy va mehnat resurslari, jamg'arilgan mol-mulkdan samarali foydalanishga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi, ya'ni soliq yukini kamaytirish orqali ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moliyaviy ahvolni mustahkamlashga va investitsiya faoliyatini jonlantirishga rag'batlantiradi.

Nazorat funksiyasi soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan, soliqqa tortish

---

<sup>12</sup> I.A.Karimov. jaxon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekistonda uni bartaraf etish yo'llari va choralari. – T. 2009-y.



ob'ekti, soliqqa tortiladigan baza, imtiyozlar singari va xokazo tegishli soliq ko'rsatkichlarining hisob-kitoblarini tekshirishdek ancha murakkab jarayondan iborat. Soliq hisobi soliq idoralariga belgilangan soliq xisobi shakllari orqali soliq to'lovchilar o'zlarining soliq majburiyatlarini yanada samarali nazorat qilish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasining hozirgi davlat moliyasi tarkibida ham soliqlar muhim o'rin tutadi, chunki u moliya tarkibida alohida bir tizimni tashkil etib, markazlashtirilgan pul mablag'lari budjet fondini shakllantirishda xal qiluvchi muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov bozor iqtisodiyotining o'zini-o'zi tartibga soluvchi mexanizmlarining istiqbolli ekanligi va bunda davlat ixtiyorida faqat iqtisodiy vositalar va rag'batlar saqlanib qolinishi hamda ularning tarkibiy qismi soliqlar ekanligi bir necha bor ta'kidlaganlar va soliqlar haqida quyidagicha o'z fikrlarini bildirganlar: «Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida soliqlar iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda eng muhim boshqaruvchi omil bo'lib qoladi»<sup>13</sup>.

Ushbu mulog'azalarni tahlil qilarkanmiz, eng avvalo, mamlakat doirasida iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda soliqlarning alohida o'rni bor ekanligini qayd etib, haqiqatdan ham davlat o'zi ishlab chiqqan iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda yoki uni hayotga tadbiiq etishda turli vositalardan foydalanadi, chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy siyosatni amalga oshirishning eng madaniylashgan, eng tabiiy va eng sog'lom yo'li haqiqatdan ham soliqlardir. O'tish davrida davlat halq xo'jaligining yashash salohiyatini, ayniqsa ustuvor tarmoqlarni qo'llab - quvvatlashi shart, bunda u ularga narxlarni tartibga solish, imtiyozli soliq solishni qo'llash va hokazolar yo'li bilan real yordam ko'rsatadi.

Keltirilgan nazariy ma'lumotlarga asoslangan holda 2016-2018 yillarda davlat budjeti daromadlar tarkibini tahlil qilar ekanmiz, yillar davomida budjet daromadlarining muntazam ravishda oshib borishi ma'lum bo'ldi. Davlat budjeti daromadlari tarkibida to'g'ri va egri soliqlarining o'rni kattadir. Umuman olganda budjet daromadlarining solikli tushumi 2016 yildan 2018 yillar oralig'ida islohotlar

---

<sup>13</sup> I.A.Karimov. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – T. "O'zbekiston", 2005.

natijasini bildirib turibdi. Albatta, shuni aytib o'tish kerakki, bu tovarlarni (ish, xizmat) iste'mol qiluvchilar zimmasiga tushadigan soliq yukining ma'lum darajada ortishini bildiradi. (2.1.1-jadvalga qarang) Davlat budjeti jami daromadlari tarkibida resurs to'lovlari va mol-mulk soliqlarining ulushi 2018 yilda 16 % ni, 2017 yilda 14 % ni va 2016 yilda 12.9 % ni tashkil qilgan. Resurslarga soliq stavkalarini oshirish (tabiiy gaz, gaz kondensatlari va neft) shuningdek, boshqa tabiiy resurslarga amal qilayotgan stavkalarning indeksatsiya qilinshi natijasida resurs to'lovlari va mulk soliqlari bo'yicha tushumlar ortgan.

## **2.2. Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida O'zbekiston**

### **Respublikasi soliq siyosatini samarali boshqarishning asosiy yo'llari.**

Respublikamizda iqtisodiyotni erkinlashtirish, uni tarkibiy qayta qurish, islohotlar samarasini oshirish borasida bir qator izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Islohotlar asosiy yo'nalishlari sifatida soliq tizimini shakllantirish va takomillashtirish bilan bog'liq bo'lib, bundan asosiy maqsad xo'jalik yurituvchi subyektlar va davlat budjeti o'rtasida majburiy to'lovlar bilan iqtisodiy munosabatlarga o'zaro erishishdan iborat. Bu borada soliq siyosatini erkinlashtirish ushbu sohada erishiladigan yutuqlar garovidir. Shu sababli, mamlakatimiz rivojlanishining muhim ustuvor yo'nalishi sifatida soliq siyosatini erkinlashtirishning belgilanishi bejiz emas.

Iqtisodiy islohotlarning dastlabki yillaridan boshlab mamlakatimizda mustaqil soliq siyosati ishlab chiqilib, uning taktika va strategiyasi aniqlangan holda izchil takomillashtirilib borilmoqda. Yurtboshimiz tomonidan milliy soliq siyosatining ustuvor yo'nalishlari belgilab berildiki, uning asosiy maqsadi soliq to'lovchilar va davlat budjeti manfaatlari o'rtasida o'zaro uyg'unlikni ta'minlashga qaratilgan. Bunday uyg'unlikni ta'minlashning eng muhim vositalaridan biri soliq yukini optimal belgilash va shu tariqa davlat budjetini kerakli miqdorda moliyaviy resurslar bilan ta'minlagan holda soliq to'lovchilar zimmasidagi soliq majburiyatlari ularning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir etmasligiga erishishdan iborat.

So'nggi yillarda tadbirkorlik subyektlarining zimmasidagi soliq yuki kamayib, uning oqibatida iqtisodiy o'sishga erishilmoqda. Bu borada Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: "«Aytish kerakki, unday iqtisodiy o'sish, ko'p jihatdan, iqtisodiyotda soliq yukini pasaytirishga qaratilgan va izchil amalga oshirilayotgan siyosat bilan bog'liq»<sup>14</sup>.

O'zbekiston mustaqillikka erishib, iqtisodiy islohotlar yo'lini tanlaganidan so'ng, oldimizda mamlakatimizning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, boshqa bozor iqtisodiyotiga o'tishdek murakkab jarayonni boshidan kechirgan rivojlangan va rivojlanayotgan xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalaridan kelib chiqqan holda mohiyatan yangi soliq tizimini vujudga keltirish vazafasi turar edi.

Bu borada, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti belgilangan soliq yukini kamaytirish, soliq ma'murchiligining samaradorligini oshirish borasidagi dastlabki talablar 2017-2018 yilning soliq-byudjet siyosatida ham o'z ifodasini topgan<sup>15</sup>.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017 yil 29 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida" gi PQ-3454-sonli qaror va "Soliq va byudjet siyosatining 2018 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" gi 454 - sonli Qonun qabul qilindi. Mazkur Qonun bilan 3 ta qonunlarga, jumladan Soliq kodeksining 47 ta moddasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

2018 yil 1 yanvardan boshlab foyda solig'i hamda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i birlashtirilib, soliq stavkasi 15.5 foiz o'rniga 14 foiz qilib belgilandi. (O'tgan yili foyda solig'i stavkasi 7.5 foiz, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i stavkasi 8 foiz, jami 15,5 foizni tashkil qilgan.)

---

<sup>14</sup> S. K. Hidayqulov. Soliq tizimi. O'quv qo'llanma. T., "ILM-ZIYO", 2017.

<sup>15</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017 yil 29 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida" gi PQ-3454-sonli qarori.

Frantsiya iqtisodiy-moliyaviy salohiyati yuksalishiga ulkan hissa qo'shgan frantsuz siyosatchisi Jan-Baptiste Kolbert o'z mamlakatining soliq siyosati haqida bir vaqtlar shunday degan edi: «Soliqqa tortish san'atini tirik g'ozning patlarini yulishga o'xshatish mumkin. Bu ishni shunday bajarish kerakki, g'oz imkon qadar og'riq sezmasin»<sup>16</sup>. Bu qiyoslash qo'polroq tuyulsa-da, uning zamirida soliq siyosatiga oid muhim haqiqat mavjud. Ya'ni, soliq siyosati shunday bo'lishi lozimki, undan soliq to'lovchi xam, davlat byudjeti ham jabr ko'rmasin.

Soliqqa tortishga oid qonunchilikning adolatli, barqaror va bardavom bo'lishiga xizmat qiluvchi shunday bir tamoyil mavjud. U ham bo'lsa, soliq to'lovchilarning tengligi printsiptir. Uning mazmun-mohiyati g'oyat oddiy: soliq undirishda barcha fuqarolarga nisbatan teng va bir xil munosabatda bo'lish. Lekin barcha ma'qullaydigan ana shu jo'ngina qoidani soliq amaliyotiga tatbiq qilish eng murakkab vazifalardan biri bo'lib qolayotir.

O'zbekistonda soliqchilik sohasi ham tubdan isloh qilinish arafasida. Shunday paytda tegishli tartib-taomillarga tanqidiy-tahliliy nigoh tashlash, ayrim muammolar kelib chiqishi sabablarini o'rganish, ularga echim izlash maqsadga muvofiq. Nazarimizda, mazkur sohada hal qilinishi zarur ikki jiddiy muammo bor.

- Birinchisi — daromadi teng bo'lgan shaxslarning soliq qonunchiligiga ko'ra turlicha miqdorda soliq to'layotgani bo'lsa;
- Ikkinchisi — daromadi turlicha bo'lgan shaxslarning bir xil miqdorda soliq to'layotganidir.

Quyida ana shu masalalar va ularning echimi bo'yicha atroflicha mushohada yuritishga harakat qiladigan bo'lsak, Soliq sohasida tenglik ta'minlanishining o'ziga xos ikki mezon mavjud: gorizontal tenglik va vertikal tenglik. (2.2.1-rasmga qarang)

Gorizontal tenglik bir xil daromad topayotgan shaxslar bir xil miqdorda soliq to'lashi zarurligini anglatadi. Boshqacha aytganda, ikki shaxsning muayyan davr mobaynida topgan daromadlari bir xil bo'lsa va bu daromadlarni turlicha soliqqa tortish uchun asoslar bo'lmasa, bu mablag'lar qaysi manbalar hisobiga topilishidan

---

<sup>16</sup> <https://www.xabar.uz/siyosat/daromadlar-teng-lekin-kanada-universiteti-professor>

qat'i nazar, ulardan yagona miqdordagi soliq undirilishi kerak.

Vertikal tenglik tamoyilida jismoniy shaxsning daromadi ko'paygani sari uning to'lov qobiliyati ham shuncha oshib borishi, binobarin, uning jamiyat oldidagi moliyaviy mas'uliyati ham mutanosib ravishda kuchayishi o'z ifodasini topgan.

Shu o'rinda aytish kerakki, hozirda juda ko'p davlatlar, ayniqsa, rivojlangan mamlakatlar o'z iqtisodiyotini bozor tizimi asosida boshqarib kelmoqda. Uning rejali iqtisodiyotga nisbatan talaygina afzal jihatlari bor:

- raqobat;
- samaradorlik;
- talab va taklif mutanosibliigi;
- iqtisodiy o'sishning izchilligi;

Biroq bozor iqtisodiyotining salbiy tomonlari ham mavjud va uning eng asosiysi, bu kapitalning sekin-asta aholining kichik bir qismi qo'lida to'planishi, jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy tengsizlikning yuzaga kelishidir. Aksariyat rivojlangan davlatlar mazkur muammo keskinligini soliq siyosati vositasida yumshatishga — o'sib boruvchi stavkalar asosida jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishga harakat qilishadi. Bunda fuqaro yillik daromadining dastlabki qismi past stavkada soliqqa tortiladi yoki u soliqdan butkul ozod qilinadi. Chunonchi, 2018 yilda daromadlarning soliqdan ozod qilingan ulushi Kanadada 11809 dollar, Germaniyada 8820 evro, Buyuk Britaniyada esa 5000 funt sterlingni tashkil qildi. Aholining muhtoj toifalari o'rta qatlam darajasiga ko'tarilib olishi uchun shunday yo'l tutiladi mazkur davlatlarda. Ayni paytda shaxsning daromadi oshib borgani sayin o'rtacha soliq miqdori ham shunga mos ravishda ko'payib boraveradi. Kanadada jismoniy shaxslarning daromadlari miqdoridan kelib chiqilgan holda 0 dan 33 foizgacha, Germaniyada 14 dan 45 foizgacha, AQShda 10 dan 37 foizgacha, Xitoyda 3 foizdan 45 foizgacha, Janubiy Koreyada 6 dan 40 foizgacha, Turkiyada 15 dan 35 foizgacha o'sib boruvchi shkala stavkalari asosida soliqqa tortiladi.

Soliq qonunchiligi jismoniy shaxslar daromad turlarining barchasiga nisbatan imkon qadar neytral va teng munosabatda bo'lishi zarur.

- ❖ Birinchidan, soliqqa oid tartib-taomillarning muayyan iqtisodiy faoliyat turini asossiz rag'batlantirmasligiga yoki aksincha, jazolamasligiga erishiladi. Fuqaro daromadlarini soliq omili emas, uning iqtidor va layoqatlari, bozordagi talab hamda taklif va boshqalar belgilay boshlaydi.
- ❖ Ikkinchidan, soliq to'lovchilarning tegishli qonun hujjatlariga itoatkorligi, hurmati oshadi.
- ❖ Uchinchidan, byudjetga jismoniy shaxslardan tushadigan soliq tushumlari ko'payadi.

Umuman olganda, "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilingan 2018 yilda ham soliq siyosatini amalga oshirishda keskin chora-tadbirlardan voz kechilishi, barcha biznes toifalari uchun soliqqa tortishni soddalashtirish va soliq yukini kamaytirish, shu asosda ishlab chiqarishni va soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish zarurligi ta'kidlangan.

Iqtisodiyotni soliqlar orqali boshqarishda soliq mexanizmi elementlaridan keng ko'lamda foydalaniladi. Ulardan keng qo'llaniladigan va samarali choralari sifatida soliq stavkalarini, soliq imtiyozlarini o'zgartirish kabilarni alohida qayd etib o'tish lozim.

2019 yil 1 yanvardan boshlab jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqlar kamaytiriladi. Yuridik shaxslarning soliq majburiyatlari tovarlarni (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilish hajmidan davlat maqsadli jamg'armalariga ajratmalarni bekor qilish hisobiga kamaytiriladi. Korxonaning rentabelligi 15 % bo'lganda, 3.2 % miqdoridagi oborotdan undiriladi- gan ajratmalari miqdori 21 foizlik foyda solig'i stavkasi teng edi. Soliq islohoti soliq to'lovchilarning ixtiyorida qoladigan daromadlari ulushini oshiradi. Ushbu ta'sir doirada, Ularning tovarlar va xizmatlarga, xususiy investitsiyalar hajmiga bo'lgan talablari oshadi hamda iqtisodiyotining o'sish sur'atlarini jadallashtirishga ko'maklashadi.

Xususan, 2019-yil 1-yanvardan:

- tushumdan olinadigan majburiy ajratmalarni to'liq bekor qilish natijasida korxonalarda qo'shimcha 5,2 trillion so'm daromad qoladi;
- jismoniy shaxslar uchun daromad solig'ining eng yuqori stavkasi 22 foizdan 12

foizgacha kamaytirildi;

- yagona ijtimoiy to'lovi 25 foizdan 15 foizgacha tushirildi;
- fuqarolarning 8 foizlik sug'urta badali bekor qilinishi natijasida aholi daromadlari 6,5 foizga oshdi;
- yuridik shaxslar mol-mulk solig'i 5 foiz 2 foizga o'zgartirildi;
- foyda solig'i 14 dan 12 foizgacha, kichik biznes subyektlari yagona solig'i 5 foizdan 4 foizgacha kamaytirilishi natijasida tadbirkorlar ixtiyorida 2 trillion so'm qo'shimcha mablag' qoladi;

Umuman olganda, mavjud 19 ta soliq va majburiy to'lovlar turi 15 tagacha kamaytiriladi. Bunday yengilliklar natijasida byudjet tushumlarini ta'minlash biroz qiyinlashadi. Shu bois, byudjet defitsitini qisqartirish, daromadlarni ko'paytirish, jumladan, ishchilar soni va ish haqini legallashtirish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish masalasi ko'ndalang mavzu hisoblanadi. Bu borada, 2019 yilgi Davlat byudjeti loyihasida 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ko'zda tutilgan soliq va byudjet siyosati islohotlarning asosiy yo'nalishlari aks ettirilgan.

2019 yilgi Davlat byudjeti daromadlar qismi 2018 yil iyun oyida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish Kontseptsiyasining asosiy yo'nalishlariga muvofiq shakllantirilgan:




- Soliq islohotlarining asosiy maqsadi iqtisodiyot va aholiga soliq yukini kamaytirish;
- Soliqqa tortish tizimini soddalashtirish hamda soliq ma'murchiligini takomillashtirish.

Keyingi ikki yilda valyuta bozorini liberallashtirish, narxlar shakllantirishning bozor mexanizmiga o'tish, iqtisodiyotda, xususan qishloq xo'jaligida to'lov intizomini yaxshilash bo'yicha amalga oshirilgan tadbirlar soliq yukini kamaytirish bilan bir qatorda Davlat byudjeti daromadlarini sezilarli darajada oshishini ta'minladi.

Umuman olganda, 2019 yil davlat byudjetining xarajat qismi ijtimoiy yo'naltirilganligini saqlab qolmoqda. Xarajatlarning to'rtidan bir qismi: bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishni kengaytirish, maktab ta'limini yaxshilash va

oliy ta'limni rivojlantirishga yo'naltiriladi. Shuningdek, axoliga tibbiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash uchun zarur mablag'lar nazarda tutilgan. Fundamental va amaliy fanlarni rivojlantirishga, ilmiy faoliyat natijalarini ishlab chiqarishni joriy etishga ajratilgan mablag'lar xajmi qariyb ikki barobarga oshirilmoqda. Byudjet tashkilotlarida ishlovchi xodimlarning to'lov qobiliyatini saqlab qolish maqsadida, kelgusi yilda ham ish haqi, pensiya va stipendiyalar miqdorlarini inflyatsiya darajasida oshirib borish siyosati davom ettiriladi.

2019 yildan boshlab Davlat byudjeti loyihasi kelayotgan yil uchun byudjet parametrlari hamda kelgusi ikki 2020-2021 yillarga mo'ljallangan o'rta muddatli byudjet mo'ljallarini o'z ichiga oladi. (2.2.2-rasmga qarang)


<p><b>O'rta muddatli makroiqtisodiy doiralar</b></p> 	<p><u>Budjetga ta'sir ko'rsatadigan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar: YaIM o'sishi, inflyatsiya darajasi, valyuta kursi.</u></p>
<p><b>Budjet soliq siyosati konsepsiyasi</b></p> 	<p><b><u>Soliq siyosati va davlat budjetini shakllantirishning asosiy ustivor yo'nalishlari.</u></b> <b><u>(daromadlar va xarajatlar)</u></b></p>
<p><b>O'rta muddatli budjet doiralari</b></p> 	<ul style="list-style-type: none"> <li>• <u>Davlat budjeti daromadlarining umumiy hajmi;</u></li> <li>• <u>Davlat budjeti xarajatlarining umumiy hajmi;</u></li> <li>• <u>Davlat budjeti taqchilligi;</u></li> <li>• <u>Davlat qarzining cheklangan miqdori</u></li> <li>• <u>Tarmoqlar bo'yicha xarajatlar chegaralari;</u></li> </ul>

### 2.2.2-rasm. O'rta muddatli soliq-budjet mo'ljallari<sup>17</sup>

O'rta muddatli byudjet mo'ljallari (O'MBM) siljish (o'zgarish) grafigi asosida tuziladi, ya'ni har yili bir yil oldinga suriladi. (2.2.3-rasmga qarang)

<sup>17</sup> [www.mf.uz](http://www.mf.uz) ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi.





### 2.2.3-rasm. O'rta muddatli soliq - budjet mo'ljallari va yillik budjet tuzilmasi<sup>18</sup>

2019-2021 yillarga mo'ljallangan **o'rta muddatli makroiqtisoiy ko'rsatkichlar** iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning o'rta muddatli prognozidan, demografik o'zgarishlardan, jahon bozorida strategik tovarlar narxlari o'zgarishidan, tashqi va ichki investitsiyalar hajmidan, asosiy savdo hamkorlarining iqtisodiyoti rivojlanishidan va boshqa omillardan kelib chiqib shakllantirilgan.

Diagrammalardan ko'rinib turibdiki iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda daromadlarning o'sishini kuzatish mumkin. Bu borada YaIM prognozi 3-4 yildan keyin o'sish sur'ati 6.8-7.1 foiz atrofida bo'lishi kutilmoqda. (2.2.2-diagrammaga qarang) Ushbu ko'rsatkich mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yangi soliq siyosati konsepsiyasining to'g'ri bajarilishi bilan bo'g'liq.


**O'rta muddatli byudjet ko'rsatkichlari** ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish prognozlaridan, soliq islohoti amalga oshirish davrida davlat xarajatlarining o'sishiga yo'l qo'ymaslik, shuningdek, tashqi qarzning cheklangan miqdorini belgilash qoidalari asosida tuzilgan. 2019 yilgi Davlat byudjeti taqchilik bilan rejalashtirilgan bo'lib, bu davlatning rejalashtirilgan xarajatlari kutilayotgan daromadlaridan oshishini anglatadi. Etishmayotgan daromadlar respublika byudjetining yil boshidagi bo'sh turgan qoldiq mablag'lari, xalqaro moliya institutlarining tashqi qarzlari, ichki g'aznachilik

<sup>18</sup> [www.mf.uz](http://www.mf.uz) ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi.

obligatsiyalari chiqarish va inflyatsiyaga olib kelmaydigan boshqa manbalar hisobiga qoplanadi.

2.2.2-diagramma

### 2019-2021 yillarga mo'ljallangan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi<sup>19</sup>



Ushbu diagrammada davlat budjetining kelajakda ishonchli profisitni ta'minlashini ko'rsatib turibdi. Umuman olganda budjet prognozida daromad va xarajatlar o'rtasidagi farq sezilarli darajada kamayib borishini bildirib turibdi.

Byudjet tizimi byudjetlarining barcha tushumlari va xarajatlari hisobini yuritish maqsadida konsolidatsiyalashgan byudjet tuziladi. O'zbekiston Respublikasining Konsolidatsiyalashgan byudjeti tarkibida Davlat byudjeti va Davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarini ko'rish mumkin. (2.2.4-diagrammaga qarang)

<sup>19</sup> [www.mf.uz](http://www.mf.uz) ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi.

### Konsolidasiyalashgan budget daromadlari, xarajatlari va taqchilligi<sup>20</sup>



### Konsolidasiyalashgan budget daromadlari, xarajatlari va taqchilligi<sup>21</sup>



<sup>20</sup> [www.mf.uz](http://www.mf.uz) ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi.

<sup>21</sup> [www.mf.uz](http://www.mf.uz) ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi.

Konsolidasiyalashgan budjet kiyingi moliyaviy yillarda musbat budjet holatiga o'tish imkoniyati borligidan dalolat beradi. (2.2.5-diagrammaga qarang)

O'zbekiston Respublikasi Soliq siyosatini takomillashtirish kontseptsiyasida belgilangan maqsadlarga erishish quyidagi rasmda ko'rsatilgan. (2.2.4-rasmga qarang)

Soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish va soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish iqtisodiyotni jadal rivojlantirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini yaxshilashning eng muhim shartlari hisoblanadi.

Shu bilan birga, o'rganishlar natijalari mazkur sohada bir maromda iqtisodiy o'sishga, ishbilarmonlik va investitsiyaviy faollikni oshirishga, sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar yig'iluvchanligining zarur darajasini ta'minlashga to'sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammolarni bartaraf etish ko'ndalang masala bo'lib qoladi.

### **2.3. O'zbekiston Respublikasida soliq siyosatini tashkil etishning asosiy yo'nalishlari va istiqbollari.**

Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish borasidagi choralar samaradorligi mamlakat soliq siyosatida ham o'zgarishlar bo'lishini taqozo etadi. Soliq, siyosatini takomillashtirish mamlakatda olib borilayotgan islohotlarning chuqurlashuvi, mulkchilik shaklidagi o'zgarishlar, mahsulotlarga baho belgilash, bank tizimi, pul-kredit siyosatidagi islohotlar bilan uzviy bog'liqlikda olib boriladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati tomonidan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan soliq siyosati takomillashtirilishiga joylarda alohida e'tibor qaratilishi kun tartibidagi muhim masalalardan biri bo'lmoqda.

Davlat budjeti, uning daromad va xarajatlari jamiyatning iqtisodiy kategoriyalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, chunki davlat budjeti jamiyatda yaratilgan ijtimoiy mahsulot qiymatining taqsimlanish jarayonida o'zining moddiy shakliga ega bo'ladi.

Davlat budjeti barqarorligini ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari, eng

avvalo, iqtisodiyotning barqarorligi va muvozanatlashtirilgan o'sishni ta'minlash, eng muhimi tarmoqlarni yanada tarkibiy jihatdan o'zgartirish, texnik va texnologik jixatdan yangilashni faol davom ettirish, shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini xar tomonlama qo'llab quvvatlash, diversifikatsiyalangan va raqobatbardoshli iqtisodiyotni shakllantirish xamda bank - moliya tizimida bir qancha imtiyoz va qulayliklar yaratishdir.

Bilamizki, davlat budjeti daromadlari davlat budjeti barqarorligini ta'minlashning asosiy manbai xisoblanadi. Davlat budjetining daromadlari o'zining manbalari, ijtimoiy - iqtisodiy xarakteri, mulkchilik shakli, soliq va to'lovlarning turlari, mablag'larning tushish shakli va ularni budjetga undirish metodlariga muvofiq klassifikatsiya qilinishi mumkin.

2019 yilga mo'ljallangan Davlat byudjeti daromadlari 102.6 trln. so'm yoki YaIM ga nisbatan 24.2 foiz miqdorida rejalashtirilgan, bu 2018 yil ko'rsatkichidan 37.7 foizga ko'pdir.

Davlat budjeti barqarorligini ta'minlash hamda budjet daromadlarini shakllantirishda soliqlar ulushini yanada oshirish quyidagi tamoyillarga asoslanishi maqsadga muvofiqdir:

- ❖ Soliqlarning budjetga olinishi mamlakat milliy boyligi manbalarining tugashiga olib kelmasligi kerak;
- ❖ Soliqlar ularni to'lovchilar o'rtasida teng taqsimlanishi lozim;
- ❖ Soliqlarni ishlab chiqaruvchilarning aylanma fondlari xajmiga ta'sir ko'rsatmasligi lozim;
- ❖ Soliqlarning sof daromadga nisbatan xisoblanishi;
- ❖ Davlat uchun soliqlarning undirilishi iloji boricha arzonroq bo'lishi lozim;
- ❖ Soliqlarning undirilish jarayoni xususiy sektorni siqib chiqarmasligi kerak;
- ❖ Sub'ektlarning mustaqil faoliyat ko'rsatishiga sharoitlar yaratish;
- ❖ Budjet daromadlarini shakllantirishda ulushli ishtirok etish.

Bu tamoyillar budjet daromadlarini aholi mablag'lari hisobidan shakllantirishda qo'llanilib, uning natijasida aholi daromadlari darajasiga bog'liq ravishda bir qismi budjetga o'tkaziladi.

Milliy iqtisodiyotning o'sishi, narx omili va qo'shimcha daromad manbalarini aniqlash 2019 yilda Davlat byudjeti daromadlari o'sishining asosiy omillari hisoblanadi.

Egri soliqlarning asosiy tushumlari QQS hisobiga (74 foizi) ta'minlanadi. Yillik aylanmasi (tushumi) 1 mlrd. so'mga etgan korxonalar umumiy belgilanadigan soliqlar to'lashga o'tkazilishi munosabati bilan soliq to'lovchilar sonini oshirish hisobiga QQS ni oshirish rejalashtirilmoqda. Aktsiz solig'i tushumining oshishi alkogolli va tamaki mahsulotlari uchun aktsiz solig'i stavkalari indeksatsiyasi bilan bog'liq. (2.3.1-diagrammaga qarang)

Moliyaviy rag'batlantirish tizimini rivojlantirish va yuridik hamda jismoniy shaxslar daromadlarini jadal sur'atlar bilan o'sishini ta'minlash uchun sharoit yaratish soliq siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lib hisoblanadi. Bu maqsadlarni amalga oshirishning eng maqbul yo'li iqtisodiyotda soliq imtiyozlarining faol amal qilinishini ta'minlashdir. Mustaqillikka erishganimizdan beri muntazam ravishda yuridik va jismoniy shaxslar uchun soliq imtiyozlari berilib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 4 dekabr PQ 2270-qaroriga asosan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkasi 7.5 % ga kamaytirilishi natijasida yuridik shaxslardan olingan foyda solig'i summasi 1180.5 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu yuridik shaxslardan olingan foyda solig'i summasining Respublika budjeti umumiy daromadidagi ulishi 3.23 % ni tashkil qilganligini bildiradi. Ma'lumotlarga qaraydigan bo'lsak, 2016 yilga kelib yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkasi o'zgarmagan xolda minimal qiymatidagi summa 1215.1 mlrd. ga oshdi va bu daromad yuridik shaxslardan olingan foyda solig'i summasining Respublika budjeti umumiy daromadining 2.96 % ga kamaytirdi. 2017 yilda esa yuridik shaxslardan olingan foyda solig'i summasining Respublika budjeti umumiy daromadidagi ulushi 2016 yilning Respublika budjeti umumiy daromadidagi ulishi bilan bir xil bo'lib, lekin minimal qiymati 260.4 mlrd so'mga oshdi va 1475.5 mlrd. so'mga yetdi. Diagrammada 2016 - 2017 yillarda yuridik shaxslardan olingan foyda solig'i summasining Respublika budjetining umumiy daromadidagi ulushi o'zgarmagan xolda minimal qiymatini oshganligini ko'rsatgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabr PQ 3454-qaroriga asosan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkasi 7.5 % dan 14% ga oshirilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining soliq kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Buning natijasini siz ushbu diagramma orqali ko'rishingiz mumkin, bunda ko'rinadiki yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining budjet daromadidagi ulushining minimal qiymati joriy yilda o'tgan yilga nisbatan ikki barobar oshgan.

2018 yilda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'inig budjet daromadidagi ulushi 2510.9 mlrd, so'mni tashkil qilgan. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, 2018 yildagi yuridik shaxslardan olingan foyda solig'i summasining Respublika budjeti umumiy daromadidagi ulishi 4.03% ni tashkil qildi va o'tgan yilning minimal qiymatiga nisbatan 35.7 % ga oshganligini ko'rishimiz mumkin.

2019 yilda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i tushumida jiddiy o'sish kutilayotgan bo'lib, bu yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkasi kamaytirilishi munosabati bilan yuridik shaxslar daromadlarini legallashtirish bilan bog'liq. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha tushum oshishi (181,0 foizga) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha yassi shkala joriy etilishi hisobiga tadbirkorlik sub'ektlarida xodimlar soni va mehnatga haq to'lash fondi legallashtirilishi va fuqarolarning sug'urta badallari bekor qilinishi bilan izohlanadi.


Amaldagi soliqqa tortish tizimining yana bir muhim muammolaridan biri mulkchilik huquqi asosida soliq to'lovchiga tegishli bo'lgan mulkning bozor bahosini aniqlashdir. Amaliyotda qo'llanilayotgan qonunchilik va me'yoriy hujjatlarga ko'ra, soliqqa tortish obyektlarining bozor bahosini aniqlash mexanizmi belgilanmagan. Shuning uchun ham bu narsa amaliyotda soliq inspektori zimmasiga yuklatilganki, u bozor konyukturasini aniqlashi, mulkning bahosi to'g'risidagi barcha xulosalarni to'plashi, ularni tahlil qilishi va soliqqa tortiladigan summani aniqlashi kerak. Bundan tashqari shu mexanizm bo'lmaganligi sababli soliqqa tortish maqsadlari uchun obyektlarni baholovchi organlar tomonidan aholini uy-joy fondini xususiylashtirishga jalb etish, ko'chmas mulk ikkilamchi bozorini kengaytirishga noqonuniy urinishlarga

sabab bo'lmoqda.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda soliqqa tortish obyektlarining real bozor qiymatini aniqlash va shunga mos ravishda soliqlardan yo'qotmalarni qisqartirish maqsadida hamda xorijdagi bu ishlarga tegishli bo'lgan tajribalarini inobatga olgan holda soliq organlari tarkibida soliqqa tortish maqsadlari uchun mulkning bozor bahosini aniqlash bo'yicha mutaxassis-baholovchilar institutini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lgan.

### 2.3.3-diagramma


#### Davlat budjetiga resurs soliqlari tushumining o'sishi<sup>22</sup>, (mlrd. so'm)



<sup>22</sup> [www.mf.uz](http://www.mf.uz) sayti. Fuqarolar uchun budget 2019 loyihasi.



Resurs to'lovlari soliqlari 2019 yilda 2018 yilga qaragan o'sish kuzatilishi ma'lum bo'ldi. Lekin shuni aytib o'tish kerakki yuridik shaxslarning mol-muk so'lig'I pasayishi prognozdan ma'lumdir. (2.3.3-diagrammaga qarang)



2.3.1-rasm. O'zbekiston respublikasi budjetiga yirik soliq to'lovchilardan tushadigan tushumlar ulishi<sup>23</sup>

<sup>23</sup> [www.mf.uz](http://www.mf.uz) sayti. Fuqarolar uchun budjet 2019 loyihasi.

20 ta eng yirik soliq to'lovchi Davlat byudjetiga tushumlarning deyarli 38 foizini ta'minlaydi. Ushbu rasmda "Navoiy kon-metallurgiya konbinati" 6.8 % ni, "O'ztransgaz" AK 6.4 % budjetning daromad qismini tashkil qiladi. (2.3.1-rasmga qarang)

2019 yildan boshlab soliqlarni respublika va mahalliy byudjetlar o'rtasida taqsimlash shartlari o'zgaradi. Ushbu o'zgarishlar respublika budjet daromadlarini to'g'ri taqsimlashda optimallikni oshiradi.

Keyingi yillarda mamlakatda sodir bo'layotgan tarkibiy o'zgarishlarda hududlarning roli ham sezilarli darajada oshdi. Hududlarning iqtisodiy salohiyati va raqobatbardoshligini oshirishga yo'naltirilgan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. O'zbekiston hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va iqtisodiy o'sish sur'atlaridagi tafovutlar bir qator ob'ektiv sabablar – bozor islohotlarining dastlabki davridagi hududiy rivojlanish darajasi, hududning investitsion jozibadorligi, iqtisodiy - geografik rivojlanishi, infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi, innovatsion salohiyati va boshqa ko'pgina omillar bilan izohlanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish, davlatning iqtisodiyotdagi o‘rnini yanada qisqartirish, tadbirkorlik faoliyati himoyasi va kafolatini kuchaytirish, investitsiya jalb qilish hamda iqtisodiyotning tayanch tarmoqlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar belgilangan makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga erishishga ko‘maklashdi.

Shuningdek, buning uchun bir tomondan iqtisodiy va moliyaviy sharoitning barqarorligini va oldindan ko‘ra bilishni ta‘minlashga yo‘naltirilgan, ikkinchi tomondan iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiyot sohalarini modernizatsiyalash va jadal rivojlantirish bilan bog‘lik tuzilmaviy nomutanosiblik va to‘siqlarni bartaraf etishga yo‘naltirilgan soliq-budjet siyosatni o‘tkazish talab etildi.

Soliq siyosatida soliq nazorati talablarini ta‘minlaydigan qo‘shimcha mexanizm va instrumentlarni kiritish yo‘li bilan soliq siyosatining konsepsiyasini mukammalligini ta‘minlashda soliq to‘lovchilarning fikrlarini ham inobatga olish zarur, xususan:

- jismoniy shaxslarga yakka tartibda tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tgan holda, tegishli litsenziya olish sharti bilan yo‘lovchi tashish faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini berish;
- yo‘lovchi va yuk tashish xizmati ko‘rsatuvchi korxonalar uchun, soliq solish tizimidan qat‘i nazar, har bir avtotransport uchun, o‘xshash faoliyat bilan shug‘ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan soliq summasidan kam bo‘lmagan miqdorda minimal soliq solish miqdorini belgilash tartibini joriy qilish;
- yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun chegaraviy aylanma miqdordan (oyiga 45.0 mln.so‘m) ortiq qismidan 4% miqdorida (qat‘iy belgilangan soliq hisobiga) soliq to‘lash tartibini joriy etish;
- soliqdan imtiyozlar va preferensiyalar berish orqali yuridik shaxslar faoliyatlarini yanada erkinlashtirish va ularning faoliyatlari samarasi oshishiga

imkoniyat yaratish.

- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini respublika byudjeti va mahalliy byudjetlar o'rtasida teng ulushlarda taqsimlash;
- tuman va shaharlar mahalliy byudjetlarining bazaviy yilda aniqlangan qo'shimcha daromad manbalaridan qat'i nazar, o'rta muddatli byudjetga (kamaytirmasdan) soliq va boshqa majburiy to'lovlardan ajratmalar normalarini birlashtirish;

Soliq organlari va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarga nisbatan o'zaro hamkorlik respublikada olib boriladigan yagona soliq siyosatini olib borishda, soliqlar va boshqa soliqlarga tenglashtirilgan majburiy to'lovlarning hudud byudjetiga kelib tushishini ta'minlash bo'yisha vazifalarning bajarilishi natijalarini tahlil qilishda ishtirok etish orqali namoyon bo'ladi.

Shu o'rinda mahalliy hokimiyat organlarining soliqlar bo'yisha vakolatlariga qisqasha to'xtalib o'tadigan bo'lsak, mahalliy hokimiyat organlari mamlakatimiz soliq qonunshiligiga muvofiq bir qancha vakolatlarga ega bo'lib, ular o'zlarining hududida joylashgan soliq to'lovshilarga mahalliy soliqlar va yigimlar bo'yisha qo'shimcha soliq imtiyozlarini belgilash, soliq stavkalarining miqdorini Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab qo'yilgan eng yuqori stavkalar doirasida belgilash kabi vakolatlarini sanab o'tishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, respublikamizda soliq siyosati davlatning maxsus vakolatli organlari tomonidan ishlab shiqiladi va amalga oshiriladi. Soliqlar bo'yisha har bir hokimiyat organi maxsus vakolatlarga ega bo'lib, ularning har biri o'z faoliyatlarini samarali olib borishda ushbu vakolatlardan foydalanadi. Bunda vakolatli organlar sifatida barsha hokimiyat organlari, jumladan, qonun shiqaruvshi, ijro etuvshi va sud hokimiyatlari birgalikda faoliyat ko'rsatadi va unda Davlat soliq qo'mitasi soliq siyosatini amaliyotga joriy etishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan vazifalarni bajaradi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.**

### **I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2014.
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi: Rasmiy nashr- O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi - T.: "Adolat", 2008 y. -692 B
3. O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013-yil., 52-I-son.
4. O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati idoralari to'g'risida"gi Qonuni // №279-II, 2003-yil 2-sentabrda qabul qilingan.

### **II. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari**

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining ma'ruzasidan.//Xalq so'zi 2017-yil.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 8-yanvardagi "Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1257 sonli Qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 24-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2011-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi 1449-sonli qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2012-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi 1675-sonli qarori.

- 10.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 25-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2013-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi 1887-sonli qarori.
- 11.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 4-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2015-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi 2270-sonli qarori.

### **III. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari**

- 12.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 19-iyulda 148-sonli qarori bilan Vazirlar Mahkamasining "Budjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida" 1999-yil 3 sentyabrda 414-son qarori
- 13.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 26-martda "Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish loyihasini joriy qilish va tayyorlash choralari to'g'risida"gi Qarori
- 14.Karimov I.A. Inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash-barcha islohot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2008.
- 15.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch. -T.: «Ma'naviyat», 2008.
- 16.Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish - davr talabi. "O'zbekiston" NMIU, 2009.
- 17.Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari / - T.: "O'zbekiston" NMIU, 2009. -B. 56.
- 18.Karimov. I.A. Bosh maqsadimiz - keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish T.: "O'zbekiston", 2013-y. 6427. Karimov I.A.. 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. - Toshkent, 2014. - 64 b.
- 19.Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga

oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berish - ustivor vazifamizdir. Toshkent-“O‘zbekiston”-2015-y. 69-bet.

#### **IV. Darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, monografiyalar**

- 20.S.K. Xudoyqulov. Soliq tizimi. Darslik. T, — «ILM ZIYO» — 2017
- 21.I.A.Azizova Natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish: o‘quv qo‘llanma. 2010. T.
- 22.Финансы. /Под ред. Л.А. Дробозиной -М.: ЮНИТИ, 2010. -350 с.
- 23.Malikov T., Haydarov N., “Budjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni” O‘quv qo‘llanma, Toshkent “IQTISOD-MOLIYA”, 2008 y, - 84 b.
- 24.Malikov T., Haydarov N., “Budjet daromadlari va xarajatlari” O‘quv qo‘llanma, Toshkent: “IQTISOD-MOLIYA”, 2007-y, - 245 b.
- 25.Malikov T.S., Jalilov P.T. Budjet-soliq siyosati. Darslik - T.: Akadem nashr, 2011. - 472 b.
- 26.Qosimova G. G‘aznachilik faoliyatini tashkil etish. O‘quv qo‘llanma. - T.: Iqtisod-moliya. 2005. -312 b
- 27.Qosimova G.A. Mahalliy budjetlarni tuzish va ijrosini ta‘minlash.O‘quv qo‘llanma. - T.: Fan va texnologiyalar, 2007. -396 b.
- 28.Qosimova G.A. Davlat budjeti ijrosining g‘aznachilik tizimi. O‘quv qo‘llanma. - T.: Iqtisod-moliya, 2008. -372 bet.
- 29.Srojiddinova Z.X. O‘zbekiston Respublikasi budjet tizimi: Darslik., - Toshkent, 2010. - 500 b.
- 30.Vahobov. A.V, Malikov. T.S: Moliya. Darslik. T: “Noshir” Toshkent 2011 y.

#### **V. Ilmiy jurnallardagi maqolalar va tezislar**

- 31.Ahmadjonov Sh., Allakuliev A. O‘zbekistonda natijaviylikka budjetlashtirish masalalari va xorij tajribasi. // “Moliya”. 2012. -№3. -5-11 b
- 32.Eshnazarov T.SH. Davlat moliyasi tizimini takomillashtirish va uni

- rivojlantirish omillari. // “Iqtisod va Moliya”. 2012.-№.12.-B.51-56.
- 33.Ismailova N. Davlat budjeti samaradorligini oshirishda budjet nazoratining ahamiyati.// “Moliya”. 2013. -№6.-5-8 b
- 34.Mamadjonov I, Haydarov M, Ergashev A. O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining qabul qilinishi va qonunchilikning takomillashuvi. // “Iqtisod va Moliya”. 2014.-№.1.-B.2-11.
- 35.Xaydarov M.T. Natijadorlikka yo‘naltirilganlik-O‘zbekistonda budjet islohotlarining yangi bosqichi.// “Iqtisod va moliya”. 2014.-№.3.-B. 2-8

## **VI. Davriy nashrlar, statistik to‘plamlar**

- 36.“Bozor, pul va kredit”. 2015-2016 yillardagi sonlari
- 37.“Moliya” ilmiy jurnali. 2014-2013 yillardagi sonlari
- 38.“Soliq va bojxona xabarleri” moliyaviy-iqtisodiy gazeta.
- 39.O‘zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2014-16 yillar.
- 40.O‘zbekiston statistik axborotnomasi. - Toshkent, 2015 - 2016 yillar.

## **VIII. Internet saytlari**

- 41.[www.gov.uz](http://www.gov.uz) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi rasmiy sayti
- 42.[www.soliq.uz](http://www.soliq.uz) O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi rasmiy sayti
- 43.[www.lex.uz](http://www.lex.uz) O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma‘lumotlari
- 44.[www.jstor.org](http://www.jstor.org) Xorijiy kitoblar va xorijiy nashrlarning to‘liq matnli ilmiy maqolalarning ma‘lumotlar bazasi
- 45.[www.press-service.uz](http://www.press-service.uz) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti axborot markazi sayti
- 46.[www.stat.uz](http://www.stat.uz) O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti